

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM FAN VA INNOVATSIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK
UNIVERSITETI

VYETNAM TILI

(A daraja)

TIẾNG VIỆT

(Trình độ A)

Vyetnam tilini asosiy sharq tili sifatida o‘rganuvchi
talabalar uchun darslik

Toshkent-2025

Ushbu *“Vyetnam tili (A darja)”* darsligi talabalarga vyetnam tilining boshlang‘ich (A1 va A2) darajasidagi asosiy ko‘nikmalarini tez va oson o‘zlashtirishga yordam berib, tilni o‘rganishning ilk bosqichida kerak bo‘ladigan eng muhim fonetik xususiyatlar, grammatik tuzilmalar, kundalik muloqotga oid so‘z boyligi va madaniy asoslarni amaliy va visual jihatdan yetkazishni maqsad qilgan, tizimli ravishda tuzilgan, o‘zbek-vyetnam va vyetnam-o‘zbek tillarida lug‘atni o‘z ichiga olgan boshlang‘ich qo‘llanma hisoblanadi.

Muallif:

Qodirova D.M.

– TDSHU, Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi o‘qituvchisi

Muharrir:

Murtazaxodjayeva M. M.

– TDSHU, Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi katta o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

Karimov A.A.

– TDSHU, Xitoyshunoslik oliy maktabi professori, f.f.n.

Yunusova G.D.

– TDSHU, Koreyashunoslik oliy maktabi dotsenti, PhD

Umarova M.X.

– Yaponiya raqamli universiteti Yapon tili bo‘limi katta o‘qituvchisi

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 20____-yil _____-sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2025.

MUNDARIJA - MỤC LỤC	
SO‘Z BOSHI - LỜI NÓI ĐẦU	11
KIRISH - GIỚI THIỆU	13
FONETIKA - NGỮ ÂM	15
Zamonaviy vyetnam alifbosi va yozuv xususiyatlari - Bảng chữ cái tiếng Việt hiện đại và các đặc điểm viết	16
BIRINCHI DARS - BÀI MỘT	
MAVZU: Vyetnam tili alifbosidagi a; i (y); u unlilari va ayrim bosh bo‘g‘inli undoshlar.....	22
❖ FONETIKA - NGỮ ÂM	22
❖ AMALIY MASHQLAR - BÀI TẬP THỰC HÀNH	25
❖ MUSTAQIL TA‘LIM UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQ-LAR Câu hỏi và bài tập cho nghiên cứu độc lập.....	27
IKKINCHI DARS - BÀI HAI	
MAVZU: Vyetnam tili alifbosidagi o; u unlilari va /k/(c, k, qu); /ŋ/ (ng, ngh); /x/ (kh); /ɣ/ (g, gh) bosh bo‘g‘inli undoshlar.....	28
❖ FONETIKA - NGỮ ÂM	28
❖ IMLO QOIDALARI	30
❖ GRAMMATIKA: Vyetnam tilidagi gaplarda so‘z tartibi.....	31
❖ AMALIY MASHQLAR - BÀI TẬP THỰC HÀNH	34
❖ MUSTAQIL TA‘LIM UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQ-LAR Câu hỏi và bài tập cho nghiên cứu độc lập.....	38
UCHINCHI DARS - BÀI BA	
MAVZU: Vyetnam tili alifbosidagi ê; e; ô; o unlilari va l(l); /n/(n); /ɲ/ (nh) bosh bo‘g‘inli undoshlari. Vyetnam tilida fe‘l kesimli gaplar	39
❖ FONETIKA - NGỮ ÂM	39
❖ AMALIY MASHQLAR - BÀI TẬP THỰC HÀNH	42

❖ GRAMMATIKA: <i>Vyetnam tilidagi fe'llarning o'ziga xos xususiyatlari</i>	47
❖ MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN AMALIY MASHQLAR	50
❖ MUSTAQIL TA'LIM UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQ-LAR Câu hỏi và bài tập cho nghiên cứu độc lập.....	52
TO'RTINCHI DARS - BÀI BỐN	
MAVZU: <i>Vyetnam tili alifbosidagi diftonglar va /t'/(th); /c/(ch); /t/(tr) bosh bo'g'inli undoshlari talaffuzi. Vyetnam tilida oddiy gap ...</i>	53
❖ FONETIKA - NGỮ ÂM	53
❖ AMALIY MASHQLAR - BÀI TẬP THỰC HÀNH	54
❖ GRAMMATIKA: <i>Vyetnam tilida predikativ kesim</i>	58
❖ MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN AMALIY MASHQLAR	59
❖ MUSTAQIL TA'LIM UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQ-LAR Câu hỏi và bài tập cho nghiên cứu độc lập.....	63
BESHINCHI DARS - BÀI NĂM	
MAVZU: <i>Vyetnam tili alifbosidagi / i /(i, y); / ư /(u, o) bo'g'in oxiri yarim unlilari va qisqa unlilar. Vyetnam tilidagi darak va so'roq gaplarda ohang ifodalanishi</i>	64
❖ FONETIKA - NGỮ ÂM	64
❖ IMLO QOIDALARI	66
❖ <i>Vyetnam tilidagi darak va so'roq gaplarda ohangning ifodalanishi</i>	67
❖ AMALIY MASHQLAR - BÀI TẬP THỰC HÀNH	69
❖ GRAMMATIKA: <i>Vyetnam hisob so'zlar</i>	74
❖ MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN AMALIY MASHQLAR	78

❖ MUSTAQIL TA'LIM UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR Câu hỏi và bài tập cho nghiên cứu độc lập.....	83
OLTINCHI DARS - BÀI SÁU	
MAVZU: <i>Vyetnam tili alifbosidagi (u, ô) lablangan va lablarning ishtiroki faol bo'lmagan tovushlar. Hay/ho'ac ning ifodalanishi</i>	84
❖ FONETIKA - NGỮ ÂM	84
❖ IMLO QOIDALARI	85
❖ AMALIY MASHQLAR - BÀI TẬP THỰC HÀNH	86
❖ GRAMMATIKA: <i>Vyetnam hisob so'zlar (davomi)</i>	91
❖ MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN AMALIY MASHQLAR	93
❖ MUSTAQIL TA'LIM UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR Câu hỏi và bài tập cho nghiên cứu độc lập	97
ETTINCHI DARS - BÀI BẢY	
MAVZU: <i>Vyetnam tili alifbosidagi bo'g'in oxiri undoshlari; m; p; t; k yopiq bo'g'indagi diftonglar va ularning imlo qoidalari. Vyetnam tilida sonlar</i>	99
❖ NGỮ ÂM - FONETIKA.....	99
❖ IMLO QOIDALARI.....	100
❖ AMALIY MASHQLAR - BÀI TẬP THỰC HÀNH.....	102
❖ GRAMMATIKA.....	103
❖ GRAMMATIK MAVZUGA DOIR AMALIY MASHQLAR..	111
❖ MUSTAQIL TA'LIM UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR Câu hỏi và bài tập cho nghiên cứu độc lập	115
SAKKIZINCHI DARS - BÀI TÁM	
MAVZU: <i>Vyetnam tili alifbosidagi /ŋ/ (ng, nh) va /k/ (c, ch) bo'g'in oxiri undoshlari. Vyetnam tilida inkor va rad etish farqi.....</i>	117
❖ NGỮ ÂM - FONETIKA.....	117

❖ AMALIY MASHQLAR - BÀI TẬP THỰC HÀNH	119
❖ <i>Matn:</i> Bao Lì Xì Đỏ.....	123
❖ GRAMMATIKA - GHI CHÚ NGỮ PHÁP.....	125
❖ GRAMMATIK MAVZUGA DOIR AMALIY MASHQLAR BÀI TẬP THỰC HÀNH THEO NGỮ PHÁP	130
❖ MUSTAQIL TA'LIM UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR Câu hỏi và bài tập cho nghiên cứu độc lập	134
TO'QQIZINCHI DARS - BÀI CHÍN	
MAVZU: "KITOB DO'KONIDADA" - TẠI HIỆU SÁCH.....	135
❖ FONETIKA (TAKRORLASH)	135
❖ SUHBAT - HỘI THOẠI: TẠI HIỆU SÁCH.....	137
❖ GRAMMATIKA - GHI CHÚ NGỮ PHÁP.....	139
❖ GRAMMATIK MAVZUGA DOIR AMALIY MASHQLAR ...	142
❖ MUSTAQIL TA'LIM UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR Câu hỏi và bài tập cho nghiên cứu độc lập	142
	147
O'NINCHI DARS - BÀI MƯỜI	
MAVZU: KASBINGIZ NIMA? - BẠN LÀM NGHỀ GÌ?.....	148
❖ SUHBAT - HỘI.....	148
❖ AMALIY MASHQLAR - BÀI TẬP THỰC HÀNH.....	149
❖ GRAMMATIKA - GHI CHÚ NGỮ PHÁP.....	154
❖ GRAMMATIK MAVZUGA DOIR AMALIY MASHQLAR.....	156
❖ MUSTAQIL TA'LIM UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR Câu hỏi và bài tập cho nghiên cứu độc lập	161
O'N BIRINCHI DARS - BÀI MƯỜI MỘT	
MAVZU: AEROPORTDA - Ở SÂN BAY	162
❖ HỘI THOẠI (1)	162
❖ HỘI THOẠI (2)	162
❖ HỘI THOẠI (3)	167

❖ GRAMMATIKA - CHỦ TỊCH NGŨ PHÁP	168
❖ AMALIY MASHQLAR - BÀI TẬP THỰC HÀNH.....	171
❖ MUSTAQIL TA'LIM UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR Câu hỏi và bài tập cho nghiên cứu độc lập	176
BÀI MƯỜI HAI – O'N IKKINCHI DARS	
MAVZU: 1. GIỚI THIỆU - LÀM QUEN	177
❖ HỘI THOẠI (I) - SUHBAT (I).....	177
❖ GRAMMATIKA - CHỦ TỊCH NGŨ PHÁP	179
❖ SUHBAT (II) - HỘI THOẠI (II)	186
❖ GRAMMATIK MAVZUGA DOIR AMALIY MASHQLAR	188
❖ MUSTAQIL TA'LIM UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR. Câu hỏi và bài tập cho nghiên cứu độc lập ..	192
O'N UCHINCHI DARS - BÀI MƯỜI BA	
MAVZU: GIA ĐÌNH CỦA TÔI: CHA TÔI	193
❖ BAI DOC: CHA TÔI	193
❖ GRAMMATIKA - CHỦ TỊCH NGŨ PHÁP	194
❖ GRAMMATIK MAVZUGA DOIR AMALIY MASHQLAR....	200
❖ Matn: Chuyên môn của chúng tôi.....	206
❖ MUSTAQIL TA'LIM UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR Câu hỏi và bài tập cho nghiên cứu độc lập	208
O'N TO'RTINCHI DARS - BÀI MƯỜI BỐN	
MAVZU: TA'LIM MUASSASASI - CƠ SỞ GIÁO DỤC	210
❖ SUHBAT -HỘI THOẠI	210
❖ GRAMMATIKA - CHỦ TỊCH NGŨ PHÁP	212
❖ GRAMMATIK MAVZUGA DOIR AMALIY MASHQLAR	221
❖ MUSTAQIL TA'LIM UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR Câu hỏi và bài tập cho nghiên cứu độc lập	228
O'N BESHINCHI DARS - BÀI MƯỜI NĂM	
MAVZU: MỘT NGÀY CỦA TÔI	229

❖ <i>SUHBA</i> t - <i>HỘI THOẠI</i>	229
❖ <i>GRAMMATIKA</i> - <i>CHỦ TỊCH NGỮ PHÁP</i>	231
❖ GRAMMATIK MAVZUGA DOIR AMALIY MASHQLAR	237
❖ Matn I: Một ngày của tôi	239
II: Trường Đại học Phương Đông Quốc gia Tashken	241
❖ MUSTAQIL TA'LIM UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR	241
Câu hỏi và bài tập cho nghiên cứu độc lập	245
LUG'AT: O'zbekcha - Vyetnamcha lug'at	247
Vyetnamcha - O'zbekcha lug'at	265
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	298

SO‘Z BOSHI

Xorijiy tillarni o‘rgatish bo‘yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo‘ladigan yangi tizimni yo‘lga qo‘yish vaqti-soati keldi.¹ Bugungi kunda mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rgatishni ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish va sohani rivojlantirish uchun tizimli ishlarni tashkil etish, ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, buning uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Qaysi davlatda ta‘lim kuchli bo‘lsa, yoshlarga ko‘proq e‘tibor berilsa, o‘sha davlat ravnaq topaveradi, chunki ta‘lim-tarbiyasi bor yoshlarda innovatsion loyihalar va vatanga muhabbat ruhida voyaga yetishish bugungi kun islohatlarimizning eng asosiy maqsadiga kiradi².

Vazirlar Mahkamasining “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 19-maydagi 312-son qarorining ijrosini ta‘minlash maqsadida, mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan, xorijiy tillarni o‘qitish uchun zarur bo‘ladigan zamonaviy o‘quv adabiyotlarni yaratish ta‘lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda chet tilida so‘zlasha olish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Har qanday chet tilini o‘rganishga kirishgan kitobxon fonetika kursini o‘qimay tilni o‘zlashtira olmaydi. Shunday ekan, tovushlarning artikulyatsiya xususiyatlari, unli va undosh tovushlar tasnifi, semantiksi, tovushlar va ularning muntazam almashinishlarini, shuningdek urg‘u, ohang, intonatsiya, tovush oqimini bo‘g‘inlarga va kattaroq bo‘laklarga bo‘lish xususiyatlarini chuqur o‘rganish har qanday chet tilini mukammal o‘rganish sari qo‘yilgan ilk qadamdir.

¹ Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 6-may kuni chet tillarini o‘qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishi materiallari.

² Shavkat Mirziyoyev Yangi O‘zbekiston Strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. 464 bet

Mazkur “Vyetnam tili” darsligi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida Vetnam tilini o‘qitish (asosiy Sharq tili sifatida) bo‘yicha ishlab chiqilgan o‘quv reja va dasturiga muvofiq tuzilgan bo‘lib, Oliy ta’lim muassasalari filologiya yo‘nalishi, II va XIM hamda turizm yo‘nalishi boshlang‘ich bosqich talabalari uchun mo‘ljallangan.

Darslik ***Kirish, fonetika bo‘limi*** hamda ***Asosiy bo‘lim***ga oid mavzularni o‘z ichiga olgan bo‘lib, jami 15 ta darsdan iborat.

Darslikning ***Kirish*** bo‘limida Vyetnam tili va til xususiyatlari haqida umumiy ma’lumotlar berilib, ***Fonetika*** hamda ***Asosiy bo‘lim*** mavzularida taqdim etiladigan bilimlarni o‘qitish soddadan murakkabga tamoyiliga asoslanib, talabalarga vyetnam tilining nazariy va amaliy asoslari haqida atroflicha bilim berish, ularda vyetnam tilida erkin va mustaqil mushohada yuritish, egallagan bilim va ko‘nikmalarini amalda qo‘llash malakasi shakllantiriladi.

Kurs davomida talabalarga zamonaviy vyetnam tilidan chuqur bilimlar berish asosida A1-B2 darajalariga mos ravishda eshitib tushunish, ularda to‘g‘ri talaffuz qilish - gapirish, o‘qish, yozish va grammatika bo‘yicha bilim, ko‘nikma va til malakalarini hosil qilish hamda oliy ta’lim muassasalari (magistratura) va oliy ta’limdan keyingi bosqichga maqsadli tayyorlashdan iboratdir.

KIRISH

Vyetnam tili Vetnam Sotsialistik Respublikasining rasmiy tili bo'lib, bu davlatda 97 milliondan ortiq aholi istiqomat qiladi (ulardan vetnamliklar ko'pchilikni tashkil qiladi). Hududi 330 000 kvadrat kilometrdan ortiq maydonga ega bo'lgan Vetnam tili ko'plab turli dialekt mintaqalariga bo'lingan (odatda Shimoliy, Markaziy va Janubning uchta lahjalari).

Vetnam tili - Vyetnam xalqining qimmatli boyligi bo'lib, madaniy qadriyatlarni yoyishda ham ko'prik, ham vosita vazifasini bajaradi; Vatan mustaqilligi va Vetnam xalqining buyuk birdamligini mustahkamlashga hissa qo'shib, milliy madaniy o'ziga xoslikni saqlash va e'zozlashda yordam berishning eng muhim vositasidir.

Vyetnam Sotsialistik Respublikasi ko'p millatli, ko'p tilli va ko'p yozuvli mamlakatdir. Mamlakatda birga yashayotgan 54 etnik guruhda 8 ta til guruhi mavjud bo'lib, ular: vetnam tili – muong, mon – xmer, mon – dao, avstroneziya, xan – xitoy, tibet – birma va kaday tillari. Til va yozuv har bir xalqning o'ta muhim madaniy xususiyatlari; etnik tarkibni belgilovchi uchta muhim mezondan biridir. Bugungi kunga kelib, Vetnamdagi 53 etnik ozchilikdan 31 tasi o'z tillari va yozuvlariga ega, 22 etnik guruhlar esa, yozma tiliga ega bo'lmagan etnik guruhlariga kiradi.

Vyetnam Sotsialistik Respublikasining 2013 yilgi Konstitutsiyasining 5-moddasida: “Milliy til - vetnam tilidir. Etnik guruhlar o'z tili va yozuvidan foydalanish, o'z milliy o'ziga xosligini saqlash, go'zal urf-odatlarini, an'analari va madaniyatlarini targ'ib qilish huquqiga ega”¹ ekanligi belgilab qo'yilgan.

Etnik guruhlar o'rtasidagi tenglik printsipli ko'plab qonunlarda, jumladan, 2013 yildagi Vetnam Konstitutsiyasining 42-moddasida ifodalangan: “Fuqarolar o'z millatini belgilash va ona tilidan foydalanish, muloqot tilini tanlash huquqiga ega”.

¹ Hiến pháp nước Cộng hòa xã hội chủ nghĩa Việt Nam, Nxb. Chính trị quốc gia, H. 2013.

Vyetnam yozuvi bugungi ko‘rinishga yetib kelguncha uzoq tarixni bosib o‘tdi va islohotlar tarixida ulkan o‘zgarishlar avgust inqilobining muvaffaqiyatli yakunidan so‘ng sodir bo‘ldi, chunki Vyetnam tili davlat tomonidan rasmiy til sifatida tan olinganligi sababli, Vetnam tili nafaqat til, balki xorijiy til, milliy tilga ham aylandi ta‘lim va fanning rasmiy tili, keyin esa, siyosat tili darajasiga erishdi.

Zamonaviy vyetnam tilida uch dialekt guruhi mavjud: shimoliy, markaziy va janubiy. Ular o‘z navbatida bir qator mahalliy dialektlarga bo‘linadi.

Dialekt va subdialektlar fonetika va lug‘at tarkibiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Shuningdek, Vetnam tili ohangli tillar qatoriga kiradi. Vetnam tilining har bir bo‘g‘ini har doim ma‘lum bir ohangga ega. Vetnamning barcha dialektlarida ohang bir xil emas. Shimoliy Vyetnam shevalarida 6 ta ohang mavjud. Markaziy va Janubiy Vyetnam shevalarida 5 ta ohang bor. Zmonaviy adabiy Vyetnam tilida 6 ta ohang belgilari muqim belgilab qo‘yilgan va bugungi kunda ham amaldadir. Ular: gorizontal (milliy tilda bu ohang uchun ohang belgisi yo‘qligi sababli ham urg‘usiz ohang deb ataladi), o‘tkir tushuvchi; o‘tkir-chiquvchi; tekis-so‘roq, keskin-portlovchi va chiquvchi-tushuvchi-chiquvchi ohanglar.

Vyetnam tili eramizning dastlabki davrida ohangsiz til bo‘lgan, ya’ni uzatilgan ma’lumotlarda ifodali intonatsiya yo‘q edi.

Biroq, Shimol bilan o‘zaro ta’sir qilish jarayonidan o‘tib, Vetnam ohanglari tizimi tugallandi va hozirgi ko‘rinishga ega bo‘ldi. Vyetnam tilida ohang hosil qilish jarayoni 6-asrda boshlangan (Xitoy hukmronligi davri Li sulolasi davrida (tahminan 12-asr) dastavval uch ohang paydo bo‘lgan va asta-sekin olti ohangga aylangan).

FONETIKA - NGŨ ÂM

Zamonaviy vyetnam tilida ham dunyoning boshqa tillari kabi unli va undosh tovushlar mavjud.

Unlilar (**Nguyên âm**) ga bir unli, qo'sh unli va uch unli tovushlar kiradi.

Zamonaviy vyetnam tilida 12 ta yakka unli bor. Ular: a, ă, â, u, ư, o, ô, ơ, e, ê, i, y. Diftonglarga quyidagilar kiradi: ai, ao, au, âu, ay, ây, eo, êu, ia, iê, yê, iu, oa, oă, oe, oi, ơi, oo, ôô, ua, u, uâ, ưê, ui, uri, uo, uô, ươ, ươ, uu, uy va uchinchi unlilar, ya'ni triftonglarga quyidagilar kiradi: iêu, yêu, oai, oao, oay, oeo, uao, uây, uôi, uoi, ươu, hey. Tildagi barcha asosiy tovushlar unli tovushlardir. Ohang belgisi har doim unli tovush ustiga yoki ostiga qo'yiladi.

Unli tovushlar – og'iz va bo'g'iz bo'shlig'ida hech qanday to'siqqa uchramay hosil bo'ladigan, tarkibi ovozdin iborat (shovqin deyarli ishtirok etmaydigan) tovushlardir.

Har bir til o'ziga xos unlilar tizimiga ega

Unlilar so'zlashda tovush hosil qilish uchun yakka o'zi yoki undoshlardan keyin turishi mumkin.

Zamonaviy adabiy vyetnam tilidagi undosh (**Phụ âm**) larga bir undosh va qo'shma undoshlar kiradi. Bir undoshlarga: b, c, d, đ, g, h, k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, qo'shma undoshlarga: ch, gh, gi, kh, nh, ng, nghi, ph, qua, th, tr.

Undosh tovushlar — og'iz va bo'g'iz bo'shlig'ida turli to'siqlarga uchrab paydo bo'ladigan, tarkibi faqat shovqindan yoki ovoz va shovqindan iborat tovushlardir. Ularning talaffuzida havo oqimi sirg'alib yoki portlab chiqadi. Bu havo oqimi un paychalarini titratib yoki titratmay o'tadi. Natijada turli jihatdan birbiridan farqli undosh tovushlar hosil bo'ladi. Vyetnam tilidagi undoshlar ham dunyodagi boshqa tillar kabi o'ziga xos undoshlar tizimiga ega. Vyetnam tilidagi undosh tovushlarning alohida sifatlari haqida Fonetika bo'limida berib boriladigan darslarda to'liq ma'lumotga ega bo'lish ko'zda tutilgan.

**Zamonaviy vyetnam alifbosi va yozuv xususiyatlari -
Bảng chữ cái tiếng Việt hiện đại và các đặc điểm viết**

Harf		Harfning nomlanishi		Tovush
O‘qilishi	Yozilishi			
STT	Chữ in thường Odatiy ko‘rinish	Chữ in hoa Bosma yozuv	Tên chữ Harf nomi	Phát âm Talaffuzi
1	a	A	a	a
2	ă	Ă	á	á
3	â	Â	ớ	ớ
4	b	B	bê	bờ
5	c	C	xê	cờ
6	d	D	dê	dờ
7	đ	Đ	đê	đờ
8	e	E	e	e
9	ê	Ê	ê	ê
10	g	G	giê	giờ
11	h	H	hát	hờ
12	i	I	i	I

13	k	K	ca	ca/cờ
14	l	L	e – lờ	lờ
15	m	M	em mờ/ e – mờ	mờ
16	n	N	em nờ/ e – nờ	nờ
17	o	O	o	O
18	ô	Ô	ô	Ô
19	ơ	Ơ	ơ	Ơ
20	p	P	pê	pờ
21	q	Q	cu/quy	quờ
22	r	R	e-rờ	rờ
23	s	S	ét-xì	sờ
24	t	T	Tê	tờ
25	u	U	u	u
26	ư	Ư	ư	ư
27	v	V	vê	vờ
28	x	X	ích xì	xờ
29	y	Y	i dài	i

Vyetnamcha standart talaffuz

Vyetnamcha standart talaffuz, o'qish va yozish nafaqat Vetnam tilini o'rganmoqchi bo'lgan har bir o'quvchi, talaba uchun, balki, chet elliklar uchun ham zarur bo'lgan narsadir. Biroq, hamma ham vyetnamchani to'g'ri talaffuz qila olmaydi.

Tovushlar nuqtai nazaridan, Vyetnam tilida juda ko‘p turli ohanglar mavjud bo‘lib, har bir so‘zning talaffuzi ham juda ko‘p farqlarga, ya’ni har bir so‘z turli ma’noga ega bo‘ladi. Vyetnam tilidagi bo‘g‘inlarda ko‘pi bilan beshtagacha tovush mavjud. Masalan: Nguyen, chuyen kabi so‘zlarda oltita harf beshta tovush bor.

Tovushlarni talaffuz qilganda aniq, izchil va semantik jihatdan to‘g‘ri talaffuz qilish juda muhim, shuningdek, ohanglarni to‘g‘ri ifodalanmasligi so‘zlar ma’nosiga katta ta’sir qilib, fikrni notog‘ri bayon etilishiga sabab bo‘ladi.

Masala: con rê² - kuyov con dê - echki

Yuqoridagi har ikkala soʻz vyetnamcha oʻqilishi jihatidan bir xil talaffuz qilinadi, yaʼni “kon ze”, biroq oʻzbek tiliga turli maʼnolarda tarjima qilinadi. “*Bu mening echkim*”, yoki “*Bu mening kuyovim*”, - degan jumlaning vyetnamcha talaffuzi bir xil, faqat ohang jihatdan “kuyov”, soʻzi - **soʻroq ohang**da talaffuz qilinadi, “echki”, - soʻzi esa, - **yenqil ohang**da talaffuz qilinadi. Shu nuqtai nazardan, ohang tizimi izchil oʻrganilishi kerak boʻlgan murakkab va oʻziga jarayondir.

Vetnam tilining fonetik transkripsiya jadvalida 22 undosh fonema, 14 unli fonema va 2 yarim unli fonema mavjud. 14 ta unlidan 3 tasi diftong va 11 tasi bitta unli bor. 6 ohangni hisobga olmaganda (yengil, tushuvchi, chiquvchi, so'roq, og'ir, chiqib-tushib-chiquvchi), Vetnam tilida jami 38 ta fonema mavjud.

VETNAMCHA FONETIK TRANSKRIPSIYANI YAXSHIROQ TUSHUNISH UCHUN QUYIDAGI TARKIBGA QARANG

Stt	Âm vị	Chữ viết	Đọc	Chữ cái (oan chữ)	Ví dụ
1	i	ì, y	ì	ì, y	im ìm, ý chí
2	e	ê	ê	ê	ê chế, êm đêm
3	ɛ	e	e	e	e dề, e then
4	ɤ	α	a	a	anh ách, xanh xanh
5	a	α	a	a	a ha, la dâ
6	ã	ă/α	ă/a	ă/a	ăn năn, ăn chặn/rau dâ
7	ɤ̣	ơ	ơ	ơ	bơ phở, tờ mờ
8	ɤ̣̃	â	â	â	ân cần, lãn lãn
9	u	ư	ư	ư	từ từ, lữ lữ
10	o	ô	ô	ô	ô hô, hổ đồ
11	ɔ	o/oo	o	o/o+o	co ro, lò dồ/xoong
12	ɔ̣	o	o	o	vòng lọng, tóc, học
13	u	u	u	u	tu hú, lữ mù
14	i_e	ia/ya iê/yê	ia iê	i+a/y+a i+ê/y+ê	kia kia/kyuya yêu chiểu
15	u_o	uô/ua	uô/ua	u+ô, u+a	tuốt tuốt tuốt/ tua rua
16	u_ɤ̣	ưô/ươ	ưô/ươ	ư+a, ư+ơ	lướt lướt/ lưa thưa
17	i	ì/y	ì	ì/y	tai tái/cây cấy
18	u	ô/u	ô/u	ô/u	toán, đào hào/tuần, đau

Undosh tovushlar 22 fonemaga ega, shuning uchun har bir tovush uchun uni ifodalovchi tegishli belgilar va harflar mavjud.

Ký hiệu trong bảng phiên âm	Chữ viết thể hiện	Cách phát âm trong tiếng Việt
/b/	B	bờ
/k/	c, k hoặc q	cờ, ca hoặc quờ
/d/	chữ đ	đờ

/ɣ/	g hoặc gh	gờ hoặc ghờ
/h/	H	hờ
/l/	I	i
/m/	M	mờ
/n/	N	nờ
/p/	P	bờ
/z/	R	rờ
/ʃ/	S	sờ
/t/	T	tờ
/v/	V	vờ
/s/	X	xờ
/c/ hoặc /t/	Ch	chờ
/z/	d hoặc chữ gi	dờ
/χ/, /x/ hoặc /kʰ/	Kh	khờ
/ŋ/	ng hoặc chữ ngh	ngờ hoặc nghờ
/ɲ/	Nh	nhờ
/f/	Ph	phờ

/tʰ/ hoặc /tʰ/	Th	thờ
/t/ hoặc /t̚/	Tr	trờ

BOSH UNDOSHLAR VA TASNIFLANISHI

Hosil bolish oʻrni Hosil boʻlish usuli		<u>Môi</u> <i>Lab</i>	<u>Răng/</u> <u>Lợi</u> <i>Tish-</i> <i>milk</i>		Sau lợi <i>Milk</i> <i>orti</i>	<u>Ngạc</u> <u>cứng</u> <i>Qattiq</i> <i>tanglay</i>	<u>Ngạc mềm</u> <i>Yumshoq</i> <i>tanglay</i>	<u>Thanh</u> <u>hầu</u> <i>Halqum</i>
Mũi Burun		<u>m</u>	<u>n</u>			<u>ɲ</u>	<u>ŋ</u>	
Tắc/ toʻxtab <i>chiquvchi</i> <i>tovushlar</i> Tắc-xát <i>toʻxtab-</i> <i>sirgʻalib</i> <i>chiquvchi</i> <i>tovushlar</i>	Không bật hơi <i>Jarangsiz</i>	(p) ¹	<u>t</u>		<u>ɬ</u>	<u>c</u>	<u>k</u>	(<u>kh</u>)
	Bật hơi <i>Jarangli</i>		t ^h					(<u>th</u>)
	Thanh hầu hóa <i>Halqum</i>	<u>ɓ</u>	<u>ɗ</u>					
Xát sirgʻalib <i>chiquvchi</i> <i>tovushlar</i>	Không bật hơi <i>Nafasli</i>	<u>f</u>	<u>s</u>		<u>ɬ</u>		<u>x</u>	<u>h</u>
	Hữu thanh <i>Tovushli</i>	<u>v</u>	<u>z</u>				<u>y</u>	
Tiếp cận			<u>ɭ</u>			<u>j</u>	<u>w</u>	
R-tính - tebranuvchi			<u>r</u> ²					

¹ [p] bosh undoshi asosan chet tilidan oʻzlashgan soʻzlarda uchraydi.

² [r] tebranish orqali hosil boʻladigan [r] tovushi chet tilidan oʻzlashgan soʻzlarda hamda Vyetnamdagi ayrim hudud shevalarida uchraydi. Zamonaviy adaviy shevada [z] tovushi kabi talaffuz qilinadi.

BIRINICHI DARS - *BÀI MỘT*

MAVZU: *Vyetnam tili alifbosidagi a; i (y); u unlilari va ayrim bosh bo‘g‘inli undoshlar*

Darsning maqsadi: /a/ (a); /i/ (i,y); /u/ (u) unlilari, /m/ (m); /b/ (b); /v/ (v); /f/ (ph); /d/ (đ); /t/ (t); /h/ (h, kh) bosh bo‘g‘inli undoshlarni nutqda qo‘llash konikmasini shakllantirish. Ohang tushunchasi: ohanglar haqida ma‘lumoga ega bo‘lish, farqlash va ularni ajratib olish qobiliyatini rivojlantirish ko‘nikmalarini hosil qilish.

Tayanch so‘z va iboralar: fonetika, tovush, unli va undosh tovushlar. Ohang: yengil ohang, tushuvchi ohang, chiquvchi ohang.


FONETIKA - *NGŨ ÂM*

1. Unlilar (*Nguyên âm*):

/a/ (a) til oldi unlisi og‘iz bo‘shlig‘ida tilning quyi ko‘tarilib, og‘iz katta ochilishi natijasida hosil bo‘ladi.

/i/ (i,y) til oldi unlisi og‘iz bo‘shlig‘ida tilning yuqori ko‘tarilishi hamda iyaklar tushib, lablar tortilishi natijasida hosil bo‘ladi.

/u/ (u) til orqa, lablangan unlisi tilning yuqori ko‘tarilishi hamda orqaga tortilishi, til uchuning tushishi va old tishlaridan orqaga itarilishi natijasida hosil bo‘ladi. Lablar oldinga cho‘zilib, yumaloq shaklda keladi.



2. *Phụ âm chính* (Bosh bo‘g‘inli undoshlar):

/m/ (m), /b/ (b), /v/ (v), /f/ (ph), /d/ (đ), /t/ (t), /h/ (h, kh) undosh tovushlarning talaffuzi o‘zbek tilidagi harflar talaffuzidan deyarli farq qilmaydi.


- /m/ (m)** hosil bo'lish or'rniga ko'ra **labialburun tovush**. Talaffuz jarayonida yuqori va pastki lablar ishtirok etadi. Lab-burun tovushi bo'lganligi sababli o'pkadan chiqayotgan havo og'iz bo'shlig'ida lablarning yopolishi natijasida to'siqqa uchrab, havoning ma'lum qismi burunga yo'naltiriladi. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra **jarangli** tovush bo'lib, talaffuz qilinganda ovoz paychalarining tebranishi kuzatiladi. Bu tovushni talaffuz qilganda havoning tilga ta'siri kuzatilmaganligi sababli til va til qirralari holatiga e'tibor qaratishning hojati yo'q.
- /b/ (b)** hosil bo'lish or'niga ko'ra til oldi **lablab, portlovchi** tovush bo'lib, ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra **jaranglidir**.
- /v/ (v)** hosil bo'lish o'rniga ko'ra, **lab-tish**, ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra, **jarangli**, hosil bo'lish usuliga ko'ra, **sirg'aluvchi**, ya'ni yuqori tish va pastki lablarning bir-biriga yaqinlashishi va havo oqimining tor oraliqdan sirg'alib chiqishi natijasida hosil bo'ladi.
- /f/ (ph)** hosil bo'lish o'rniga ko'ra, **lab-tish**, ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra, **jarangsiz**, hosil bo'lish usuliga ko'ra, **sirg'aluvchi**,
- /d/ (ḍ)** hosil bo'lish o'rniga ko'ra, **til oldi**, ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra **jarangli**, hosil bo'lish usuliga ko'ra, **portlovchi** tovush.
- /t/ (t)** hosil bo'lish o'rniga ko'ra, **til oldi**, talaffuzi (**ḍ**) tovushiga o'xshash, biroq, (**ḍ**) dan farqli ravishda ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra, **jarangsiz**, hosil bo'lish usuliga ko'ra, **portlovchi** tovush. Vyetnam tilidagi (**ḍ**) va (**t**) tovushlari unli tovushlar oldida, hatto (**i**) tovushi oldida kelganda ham

yumshoq talaffuz qilinmaydi. (*đ*) va (*t*) tovushlarining (*i*) tovushi oldidan yumshoq talaffuz qilinishi soʻz maʼnosining buzilishiga olib keladi.

/h/ (h) hosil boʻlish oʻrniga koʻra, *chuqur til orqa boʻgʻiz tovushi*, halqumning eng yuqori tomonida hosil boʻladi. Ovoz va shovqinning ishtirokiga koʻra, *jarangsiz*, hosil boʻlish usuliga koʻra, *sirgʻaluvchi* tovush.

Ohang (Thanh điệu):

Tiếng Việt có sáu thanh điệu chính: ngang (không dấu), huyền (dấu huyền), sắc (dấu sắc), nặng (dấu nặng), hỏi (dấu hỏi), và ngã (dấu ngã). Ví dụ: “Học” và “Hỏi” là hai từ cùng âm đầu “H” và phần vần “ọc,” nhưng khác nhau về thanh điệu. “Học” mang thanh điệu nặng, trong khi “Hỏi” mang thanh điệu hỏi:



3. (Vyetnam tilida oltita asosiy ohang mavjud: “**ngang (không dấu)**” - “yengil ohang (ohang belgisi ifodalanmaydi), “**huyền (dấu huyền)**” - tushuvchi (oʻtkir tushuvchi) ohang, “**sắc (dấu sắc)**” - chiquvchi (oʻtkir chiquvchi), **Thanh điệu (Ohang):**

Sắc (dấu sắc) - chiquvchi (oʻtkir chiquvchi) ohang. Yengil ohang kabi boshlanib, boʻgʻin oʻrtasida ohang keskin koʻtariladi. Yozuvda yuqoriga yoʻnaltirilgan “’” belgisini boʻgʻin hosil qiluvchi unli harfnig ustiga qoʻyish bilan ifodalanadi. Transkripsiyada /3/ raqami bilan belgilanadi.



sắc


Vyetnam tilida harf usti yoki ostiga qoʻyilgan belgilar - “ohang belgilari”, - deyiladi. Bu belgilarni oʻrnatilgan qoidasiga muvofiq talaffuz qilish vyetnam tilidagi har qanday soʻzni toʻgʻri talaffuz qilish deganidir.

Ngang (không dấu) - oʻzbek tiliga soʻzma-soʻz tarjima qilinganda “gorizantal (belgisiz)”, - deb tarjima qilinadi. Ohang xususiyatidan kelib chiqib,

“yengil ohang”, - deb nomlanadi. Bu ohang ostidagi soʻzlar bir maromda, bir xil ohangda boshlanib, bir xil ohangda tugallanadi, yaʼni soʻz talaffuzi boshlangandan to tugallanguncha bir xil talaffuz qilinadi. Yengil ohang talaffuzi har bir shxsnning odatiy gapirish ohangiga teng. Yozuvda ifodalanmaydi, yaʼni soʻzga ohang belgisi qoʻyilmaydi. Transkripsiyada esa [I] (1) bilan ifodalanadi. Masalan: Ma; ha; khi....



a harfining ustida berilgan gorizontall chiziq ohang belgisi hisoblanadi, bu ohang belgisi zamonaviy vyetnam tilida yozuvda ifodalanmaydi. Transkripsiyada /1/ raqami bilan belgilanadi.



Huyền (dấu huyền) - **“oʻtkir (keskin) tushuvchi ohang”**. Yengil ohangga nisbatan pastroq boshlanib, ohang keskin tushadi. **“Huyền”** soʻzidagi pastga yoʻnaltirilgan chiziq **“tushuvchi ohang”** hisoblanadi. Odatda boʻgʻin hosil qiluvchi unli ustiga “” belgisini qoʻyish bilan ifodalanadi. Transkripsiyada /2/ raqami bilan belgilanadi.



AMALIY MASHQLAR - BÀI TẬP THỰC HÀNH

1-mashq. Quyidagi harf va soʻzlarni toʻgʻri oʻqing (*Bài 1: Đọc đúng các âm sau*):

	a	i	y	u
m	ma - mà	mi - mì	my - my	mu - mù
b	ba - bà	bi - bì	by - by	bu - bù
v	va - vạ	vi - vì	vy - vỵ	vu - vù
ph	pha- phạ	phi - phì	phy - phỵ	phu - phù
đ	đa - đà	đi - ãi	đy - ãy	đu - ãu
t	ta - tà	ti - ãi	ty - ãy	tu - ãu
h	ha - hà	hi - ãi	hy - ãy	hu - ãu

2-mashq: Eshiting va ajratib yozilgan harflarga ohang belgisini qo‘ying (Bàì 2: Nghe và điền dấu trên chữ in đậm):

			
Ba	voi	bê	mi

3-mashq. Bosh undoshlar va quyidagi dinftong va triftonglarni qo‘shib o‘qing (Bàì 3: Đọc phụ âm và nguyên âm đôi sau):

ua, ôi, uôi, eo, êu, ăn, ương, anh, om, ât

m

b

v

ph

đ

t

h

4-mashq. Quyidagi so‘zlarni o‘qing (Bàì 4: Đọc những từ sau):

ba - uch (3)

bà - buvi; ayol; honim; siz(yoshi katta ayollarga murojaatda)

và - va (bog‘lovchi)

mì - lapsha

ta - biz

bê - buzoqcha

đi - bormoq;

voi - fil

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR - CÂU HỎI VÀ BÀI TẬP CHO NGHIÊN CỨU ĐỘC LẬP

1. “Vyetnam Sotsialistik Respublikasi ko‘p millatli, ko‘p tilli va ko‘p yozuvli mamlakat”, - jumlasini izohlang.
2. Dialekt va subdialekt tushunchalarini tushintiring.
3. Diakritik belgi va ohang haqida ma’lumotlarni o‘zlashtiring.
4. Vyetnam zamonaviy adabiy tilida ohangning shakllanishi haqida gapirib bering.

1	Kinh	65795,7	19	Ra-glai	96,9	37	Kháng	10,3
2	Tày	1477,5	20	Mnông	92,5	38	Phù Lá	9,0
3	Thái	1328,7	21	Thổ	68,4	39	La Hủ	6,9
4	Mường	1137,5	22	Xtiêng	66,8	40	La Ha	5,7
5	Khơ-me	1055,2	23	Khơ-mú	56,5	41	Pà Thên	5,6
6	Hoa	862,4	24	Bru-VânKiêu	55,6	42	Lự	5,0
7	Nùng	856,4	25	Cơ-tu	50,5	43	Ngái	4,8
8	Mông	787,6	26	Giáy	49,1	44	Chứt	3,8
9	Dao	620,5	27	Tà-ôi	35,0	45	Lô Lô	3,3
10	Gia-rai	317,6	28	Mạ	33,3	46	Mảng	2,7
11	Ê-đê	270,3	29	Gié-Triêng	30,2	47	Cơ Lao	1,9
12	Ba-na	174,5	30	Cơ	27,8	48	Bố Y	1,9
13	Sán Chay	147,3	31	Chơ ro	22,6	49	Cống	1,7
14	Chăm	132,9	32	Xinh-mun	18,0	50	Sí La	0,8
15	Cơ-ho	128,7	33	Hà Nhì	17,5	51	Pu Páo	0,7
16	Xơ-đăng	127,1	34	Chu-re	15,0	52	Rơ Măm	0,4
17	Sán Diu	126,2	35	Lào	11,6	53	Brâu	0,3
18	Hrê	113,1	36	La Chí	10,8	54	Ơ Đu	0,3

IKKINCHI DARS - BÀI HAI

MAVZU: Vyetnam tili alifbosidagi *ơ*; *ư* unlilari va /k/(c, k, qu); /ŋ/ (ng, ngh); /ʃ/ (kh); /ɣ/ (g, gh) bosh bo‘g‘inli undoshlar

Darsning maqsadi: /ɣ/(ơ); /w/(ư) unlilari, /k/(c, k, qu); /ŋ/ (ng, ngh); /ʃ/ (kh); /ɣ/ (g, gh) bosh bo‘g‘inli undoshlarini nutqda qo‘llash konikmasini shakllantirish. Ohang: dau sac, dau hoi. ohanglarini farqlash va ularni ajratib olish qobiliyatini rivojlantirish; Vyetnam tilida so‘z tartibi. Ohangning so‘z ma‘nosiga ta‘siri hamda turli ohanglarni eshitib, farqlash amaliyotini bajarish.

Tayanch so‘z va iboralar: fonetika, tovush, unli va undosh tovushlar. Ohang: day sac, dau hoi ohangi. Từ, từ ngữ trong tiếng Việt.

NGŨ ÂM - FONETIKA (Davomi)


1. Unlilar (Nguyên âm):

/ɣ/ (*ơ*) lablanmagan til o‘rta cho‘ziq unlisi. Bu tovush talaffuz qilinganda lablar neytral holatda bo‘lib, og‘iz yarim ochiq, tilning orqa qismi qattiq va yumshoq tanglay chegaralariga yengil ko‘tariladi. (1-rasmga qarang)



1-rasm

/w/ (*ư*) til orqa yuqori unlisini talaffuz qilganda havo qarshilikka uchramaydi. Til orqaga bosim ostida tarang tortilib, tilning orqa qismi yuqoriga ko‘tariladi. Lablar neytral holatini saqlab, og‘iz yarim ochiq holatda bo‘ladi. /w/ (*ư*) hosil bo‘lish o‘rni /ɣ/ (*ơ*) ga nisbatan chuqurroq (2-rasmga qarang). /w/ (*ư*) unlisi o‘zidan avval kelgan harfni qattiqroq talafuz qilish kerakligini bildiradi. (3-rasmga qarang)



2-rasm



3-rasm

2. Bosh bo'g'inli undoshlar (*Phụ âm chính*):

/k/ (c, k, qu) chuqur **til orqa portlovchi** tovushi, shovqin va ovozning ishtirokiga ko'ra, **jarangsiz**. **/k/ (c, k)** o'zbek tilidagi **/k/** tovushi kabi, yozuvda **/k/ (qu)** bo'lib kelganda **/k/ (c, k)** tovushiga nisbatan chuqurroq talaffuz qilinadi.

/ŋ/ (ng, ngh) til orqa jarangli portlovchi dimog tovushi. Tovush talaffuz qilinganda til orqaga itarilib, tilning orqa qismi yumshoq tanglay chegarasiga ko'tarilib tegadi. Buning natijasida o'pkadan kelayotgan havo tosiqqa uchrab, havoning ma'lum qismi burunga yo'naltirilib dimog' tovushi hosil bo'ladi. Yozuvda **/ŋ/ (ng)** ko'rinishida kelganda o'zbek tilidagi **/ng/** kabi talaffuz qilinadi. Yozuvda **ŋ/ (ngh)** ko'rinishida kelganda **/ng/** tovushi yengil va yumshoq talaffuz qilinadi. (4-rasmga qarang).



(4-rasm).

/x/ (kh) chuqur **til orqa jarangsiz** tovushi halqumning og'iz bo'shlig'iga yaqin joyida hosil bo'lib, til orqasi va yumshoq tanglayning bir-biriga yaqinlashishi natijasida sirgalib chiqadi. O'zbek tilidagi **/kh/** ga o'xshab talaffuz qilinadi.

/ɣ/ (g, gh) hosil bo'lish o'rniga ko'ra, **chuqur til orqa**, ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra, **jarangli**, hosil bo'lish usuliga ko'ra **afrikat**, ya'ni portlovchi tovush bilan sirg'aluvchi tovushning yaxlit bitta tovush sifatida talaffuz qilinishi natijasida hosil bo'ladi. Tovush talaffuz qilinganda til orqaga itarilib til uchi pastki tishlar ildizida yotadi. Tilning orqa qismi yuqori tanglayga ko'tariladi biroq tegmaydi. O'zbek tilidagi "g" tovushini chuqurroq sirg'altirib talaffuz qilganda tilning

orqa qismi va yumshoq tanglay oraligida havo oqimining kuchli sirg'alib chiqishi natijasida hosil bo'lgan tovush kabi hosil bo'ladi. Yozuvda /ɣ/ (**gh**) ko'rinishda kelganda "g" tovushiga nisbatan yengil talaffuz qilinadi. Yengil sirg'alish holati kuzatiladi.

4. Ohang (Thanh điệu):

Sắc (dấu sắc) - *chiquvchi (o'tkir chiquvchi)* ohang. Yengil ohang kabi boshlanib, bo'g'in o'rtasida ohang keskin ko'tariladi. Yozuvda yuqoriga yo'naltirilgan "´" belgisini bo'g'in hosil qiluvchi unli harfnig ustiga qo'yish bilan ifodalanadi. Transkripsiyada /3/ raqami bilan belgilanadi.



sắc

Hỏi (dấu hỏi) - *chiqib tushuvchi (so'roq) ohangi*. Yengil ohang kabi boshlanib, bo'g'in o'rtasiga kelganda ohang ko'tariladi va ikki harf miqdorida cho'zib talaffuz ilinadi va bo'g'in oxirida keskin tushadi. Yozuvda yuqoriga yo'naltirilgan "´" belgisini bo'g'in hosil qiluvchi unli harfnig ustiga qo'yish bilan ifodalanadi. Transkripsiyada /4/ raqami bilan belgilanadi.



hỏi

’ Ỏ Ỏ Ỏ

IMLO QOIDALARI - QUY TẮC CHÍNH TẢ

1. I (**i, y**) yozuvda yolg'iz kelganda (y) bilan ifodalanadi. M.: (y tế, ý nghĩ). Medila **u** tovushidan keyin ham (y) bilan ifodalanadi M.: (suy nghĩ, quy định). Agar iê diftongi so'z boshida bo'lsa, (y) bilan ifodalanadi. M.: yên ả, yêu thương. Agar so'z oxirida trư uy, ay, ây kabi qo'sh unlilar bo'lsa (i) bilan ifodalanadi. M.: (chui lủi, hoa nhài).
2. Bosh bo'g'inli /k/ undoshi yozuvda "c" harfi bilan ifodalanadi.

Istisno: **a, ă, â, o, ô, ơ, u, ư** tovushlari oldidan "c" harfi bilan ifodalanadi; **e, ê, i (iê, ia)** tovushlari oldidan "k" harfi bilan ifodalanadi; "u" medial tovushi oldidan esa, "q" qo'llaniladi.

3. Bosh bo‘g‘inli /*ŋ*/ yozuvda “*ng*” qo‘sh undoshi va “*ngh*” triftongi bilan ifodlaadi. Yozuvda *e, ê, i, iê (ia)* unlilaridan oldin “*ngh*” triftongi, *a, â, o, ô, ơ, u, ư* unlilari oldidan “*ng*” undoshi keladi.

4. Bosh bo‘g‘inli /*ɣ*/ tovushi yozuvda “*g*” harfi orqali ifodalanadi. Masalan: gà.

Istisno: /*i*/ (*i, y*), /*e*/ (*ê*) /*ɛ*/ (*e*) unlilari oldidan /*ɣ*/ “*gh*” harfi orqali ifodalanadi. Masalan: ghi; ghê....

GRAMMATIKA - GHI CHÚ NGỮ PHÁP

(1) Vyetnam tilida grammatik munosabatlarni ifodalashda **gapdagi so‘zlarning tartibi** juda muhim vosita hisoblanadi. Vyetnam tilida so‘z tartibi asosan (**Egasi - Kesim - Fe’l**) strukturasi asosida bo‘ladi, ya’ni:

➤ **Oddiy gap tartibi:**

Ega + Kesim + Fe’l

Sxemasi:

Ega (Chủ ngữ) + Kesim (Vị ngữ /

Masalan:

• Tôi (men) + ăn (yeyman) + cơm (osh) → Tôi ăn cơm (Men osh yeyman).

• Cô ấy (u) + đọc (o‘qiydi) + sách (kitob) → Cô ấy đọc sách (U kitob o‘qiydi).

Yoki: Bà đi - buvi ketyapti (Bà - buvi; đi ketmoq)

Ta học - bizlar o‘qiyapmiz (Ta - bizlar; học - o‘qimoq)

➤ **So‘roq gaplari:**

So‘roq so‘zlari (ai, nào, bao giờ...) odatda gap oxiriga yoki tegishli so‘z oldiga qo‘yiladi.

- **Bạn tên là gì?** (Ismingiz nima?) – *gì* (nima) so‘roq so‘zi oxirda.
- **Khi nào bạn đến?** (Qachon keldingiz?) – *khi nào* (qachon) boshida.

Agar gapda kesim o‘timli fe‘l (đồng từ - ĐT) bilan ifodalangan bo‘lsa, u holda kesimdan keyin to‘ldiruvchi (bổ sung - BS) keladi.

Ví dụ: **Umida ghi từ** - *Umida so‘z yozdi* (Umida/yozmoq/so‘z)

Adiba học từ - *Adiba so‘z o‘rgandi* (Adiba/o‘qimoq/so‘z)

Ông ngủ nhiều *U (bobo) ko‘p uxladi* (Bobo/uxlamoq/ko‘p)

Yoki:

➤ **Nisbat (sifat) tartibi:** Sifatlar ko‘pincha **otdan keyin** keladi:

Ngôi nhà (uy) + đẹp (chiroyli) → Ngôi nhà đẹp (Chiroyli uy).

Gapda so‘zlar tartibining o‘zgarishi bayon etilayotgan fikrga salbiy ta’sir qiladi.

(2) Gapdagi vazifasiga ko‘ra so‘zlar, mustaqil va yordamchi so‘zlarga ajratiladi:

Mustaqil so‘zlar - ham grammatik ham lug‘aviy ma’noga ega bo‘lib, gapda mustaqil sintaktik bo‘lak sifatida ishtirok etadigan so‘zlar mustaqil so‘zlar deyiladi. Mustaqil so‘zlarga: ot, sifat, son, olmosh, fe‘l, ravish kiradi.

Yordamchi so‘zlar - Yordamchi so‘zlar mustaqil (leksik) ma’no bildirmaydi, faqat grammatik ma’noni ifodalash uchun xizmat qiladi. Yordamchi so‘zlar turkumiga ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama kiradi. Vyetnam tilidagi yordamchi so‘zlar, so‘z yasash tizimi mavjud bo‘lgan (me’yorlashtirilgan) boshqa tillarga qaraganda, muhim ahamiyatga ega.


Vyetnam tilidagi bir qator soʻzlar ham mustaqil ham yordamchi soʻz vazifasida kela oladi.

(3) Yordamchi soʻz sifatida qabul qilinmagan (rasman roʻyxatga kiritilmagan) ot soʻz turkumiga oid soʻzlar umumiy miqdorni ifodalashda qoʻllaniladi.


Ví dụ: *từ* - soʻz; soʻzlar
 cá - baliq; baliqlar

(4) Yordamchi soʻz sifatida qabul qilinmagan (rasman roʻyxatga kiritilmagan) feʼlning zamon shakllari kontekstdan kelib chiqqa holda oʻtgan zamon, hozirgi zamon va kelasi zamonni ifodalashi mumkin.

Ví dụ: (1)



(2)



3)



AMALIY MASHQLAR - BÀI TẬP THỰC HÀNH


1-mashq. Quyidagi harf va so‘zlarni to‘g‘ri o‘qing (*Bài 1: Đọc đúng các chữ cái, tiếng sau*):

	a	i/y	o	u/ư
c	ca - cá	-	cơ - cờ	cu - cù - cừ
k	-	ki - kĩ	-	-
q	-	-		qu
n	-	ni - ny	nơ - nở	nu – nư
ng			ngơ - ngờ	ngu - ngư - ngử
ng	-	ngi - nghĩ	-	-
kh	kha - khá	khi - kĩ	khơ - khờ - khớ	
g	ga	-	gơ - gờ	
gh	-	ghi	-	-

2-mashq Eshiting va quyida berilgan so‘zlarning ohangini qo‘ying
(*Bài 2: Nghe các từ sau đây và điền thanh điệu*):

1. ca - cá , cơ - cờ, cu - cù - cừ; ☐
2. ni, nơ - nở, nu - nư; ☐
3. ngơ - ngờ, ngu - ngư - ngử ☐
4. khơ - khờ - khớ, kha - khá, khi - kĩ ☐
5. ga, gơ - gờ ☐
6. ghi, ghe, ghé ☐

3-mashq. Rasmlarni soʻz bilan ifodalang (Bàì 3: *Hãy mô tả hình ảnh bằng lời*):

			
b__	b__	b__	c__
			
b__	__è	ô__	__ê

4-mashq. Quyidagi boʻgʻinlarni toʻgʻri oʻqing (Bàì 4: *Đọc các âm tiết sau*):

			
meo	ga	be	khi
	co	la	nghi

5-mashq. Quyidagi soʻzlarni oʻqing (Bàì 5: *Đọc những từ sau*):

ông - bobo, erkak, janob, men (ozi haqida gapirganda);
siz(yoshi

katta erkaklarga murojaatda)

cá - baliq

có - bor boʻlmoq, mavjud boʻlmoq

cờ	-	<i>bayroq</i>
gà	-	<i>tovuq</i>
ghi	-	<i>yozi olmoq; belgilab olmoq</i>
ghế	-	<i>stul</i>
hè	-	<i>yozi (fasl)</i>
nở	-	<i>ochilmoq (gulga nisbatan)</i>
ngủ	-	<i>dam olmoq</i>
ngủ	-	<i>uxlamoq</i>
học	-	<i>o'qimoq</i>
từ	-	<i>so'z</i>
khỉ	-	<i>maymun</i>
hoa	-	<i>gul</i>

6-mashq. Quyida berilgan gaplarni Vyetnam tiliga tarjima qiling
(Bài 6: Dịch các câu sau sang Tiếng Việt):

1. Bobo va buvi_____.
2. Bobo ketdi_____.
3. Biz dam olyapmiz_____.
4. Bizlar yozyapmiz _____.
5. Maymun uxlayapti _____.
6. Biz so'z o'rgandik _____.
7. Boboda tovuq va sigir bor _____.
8. Bola uxladi _____.
9. Ularda stol va stul bor _____.
10. Ular so'z yozdi _____.

7-mashq Quyida berilgan gaplarni O‘zbek tiliga tarjima qiling (Bàì 7:
Dịch các câu sau sang Tiếng U-dơ-bếch ():

1. Bà có ba con bò _____.
2. Họ ghi từ _____.
3. Ta và ông đi. _____.
4. Họ nghỉ _____.
5. Ta ghi và đọc từ. _____.
6. Hoa nở _____.
7. Ông ghi từ _____.
8. Bà có hoa. _____.
9. Ta có cờ _____.
10. Bà Hải và Bà Hoa nghỉ _____.

8-mashq. O‘qishni mashq qiling (Bàì 8: Thực hành đọc):

Xin chào. Chào ông. Ông có cả. Tôi có ghế. Tôi có gà. Bà ngủ. Ông nghỉ. Hoa nở. Ông bà đi. Chúng ta nghỉ ngơi. Chúng tôi viết. Con khỉ ngủ. Chúng ta học từ. Ông có một con gà và một con bò. Con ngủ. Họ có bàn và ghế. Họ viết từ.

9-mashq. 8-mashq asosida diktant yozishni mashq qiling (Luyện viết chính tả dựa trên bài tập 8.)

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR - CÂU HỎI VÀ BÀI TẬP CHO NGHIÊN CỨU ĐỘC LẬP

1. Mustaqil va yordamchi soʻzlar haqida tushintiring.
2. Vyetnamdagi dialektlar haqida maʼlumotlar bazasini tayyorlang.
3. Vyetnam adabiy tili haqida nimalarni bilasiz?
4. Vyetnam yozuvi yuzasidan amalga oshirilgan islohotlarni taqdid eting.
5. Mavzuga doir soʻzlardan “Suhbat” tuzing (5 ta gapdan iborat).



Oʻzbek va Vyetnam tillaridagi feʼllarning muhim farqlarini oʻzlashtiring!


Muhim farqlar:

- Vyetnam tili **qoʻshimchalarga ega emas** (oʻzbek tilidagi -ning, -dan kabi qoʻshimchalar ishlatilmaydi).
- **Vaqt va joy** koʻrsatkichlari gap boshida yoki oxirida boʻlishi mumkin.

Misol:

Hôm nay (Bugun), tôi (men) đi (boraman) chợ (bozorga) → Hôm nay tôi đi chợ (Bugun men bozorga boraman).

(Boshqa farqlar haqida qoʻshimcha oʻzlashtiring).



Mavzu: *Vyetnam tili alifbosidagi ê; e; ô; o unlilari va l/(l); /n/(n); /ɲ/(nh) bosh bo'g'inli undoshlari. Vyetnam tilida fe'l kesimli gaplar*

Darsning maqsadi: /e/ (ê); /ɛ/ (e); /o/ (ô); /ɔ/ (o) unlilari, l/(l); /n/(n); /ɲ/(nh) bosh bo'g'inli undoshlarini nutqda qo'llash konikmasini shakllantirish. Ohang: dau nang va dau nga. Ohanglarni farqlash va ularni ajratib olish qobiliyatini rivojlantirish uchun amaliy mashqlar bajarish.


Tayanch so'z va iboralar: fonetika, tovush, unli va undosh tovushlar. Ohang: og'ir ohang- dau nang, chiqib- tushib-chiquvchi ohang - dau nga. Động từ trong tiếng Việt.

FONETIKA - NGỮ ÂM

1. Unlilar (Nguyên âm):

/e/ (ê) *lablanmagan til orqa o'rta ko'tarilish unlisi.*

Bu unli tovush talaffuz qilinganda lablarning ishtiroki passiv bo'lib, tilning orqa tomoni biroz qattiq tanglayga ko'tariladi, til uchi pastki tishlar ildizida yotadi. Og'iz /i/ unlisining talaffuziga nisbatan kattaroq ochiq holatda bo'ladi. (5-rasmga qarang)



5-rasm

/ɛ/ (e) *lablanmagan til oldi quyi ko'tarilish unlisi.*

Bu unli tovush talaffuz qilinganda tilning holati deyarli /e/ (ê) kabi bo'lib, faqat /ɛ/ tovushining hosil bo'lish o'rni /e/ tovushining talaffuziga nisbatan chuqurroq. Og'iz /e/ (ê) unlisining talaffuziga nisbatan kattaroq ochiq holatda bo'ladi. (6-rasmga qarang)



(6-rasm)

/o/ (ô) *lablangan, til orqa oʻrta koʻtarilish unlisi.* Bu unli tovush talaffuz qilinganda til kuchli orqaga itarilib, til uchi tushadi, lablar oldinga itarilib, yumaloq shaklda boʻladi. Ogʻizning ochiqlik holati: /u/ unlisining talaffuziga nisbatan kattaroq. (7-rasmga qarang)



(7-rasm)

/ɔ/ (o) *lablanmagan til orqa quyi koʻtarilish unlisi.* Bu unli tovush /o/ (ô) tovushiga nisbatan chuqurroq talaffuz qilinadi. (8-rasmga qarang)



(8-rasm)

2. Bosh boʻgʻinli undoshlar (Phụ âm chính):

/l/ (l) *til oldi sonorli, jarangli tovushi.* Til uchi yuqori tish milk alviolalariga tegib, taranglashmaydi. Oʻzbek tilidagi /l/ tovushi kabi talaffuz qilinadi.

/n/ (n) *til oldi sonorli jarangli dimogʻ tovushi.* Tovush talaffuz qilinganda til uchi alveolalarga tegib, tilning orqa qismi yumshoq tanglay chegarasiga koʻtarilib tegadi. Buning natijasida oʻpkadan kelayotgan havo tosiqqa uchrab, havoning maʼlum qismi burunga yoʻnaltirilib dimogʻ tovushi hosil boʻladi. Oʻzbek tilidagi /n/ tovushi kabi talaffuz qilinadi.

/ʎ/ (nh) *til oʻrta sonorli, jarangli dimogʻ tovushi.* Tovush talaffuz qilinganda til uchi pastki tishlar tomon tushib, tilning oʻrta qismi yuqori qattiq tanglayga tegisi natijasida oʻpkadan kelayotgan havo toʻsiqqa uchraydi va havoning maʼlum qismi burunga yoʻnaʼltiriladi. Oʻzbek tilidagi /n/ tovushiga nisbatan yumshoq talaffuz qilinadi.

3. Ohang (Thanh điệu):

Nặng (dấu nặng) - keskin (o'tkir/og'ir ohang)-tushuvchi ohang darajasida boshlanib, Yozuvda yuqoriga yo'naltirilgan "ạ" nuqta belgisini bo'g'in hosil qiluvchi unli harfnig ostiga qo'yish bilan ifodalanadi. Transkripsiyada /5/ raqami bilan belgilanadi.




Nặng (dấu ngã) - chiquvchi (o'tkir chiquvchi)-tushuvchi va chiquvchi ohang. Biroq yuqorior darajada boshlanib bo'g'in o'rtasida ohang keskin tushadi va darhol yuqoriga ko'tariladi. Yozuvda "˘" belgisini bo'g'in hosil qiluvchi unli harfnig ustiga qo'yish bilan ifodalanadi. Transkripsiyada /6/ raqami bilan belgilanadi.



Vyetnam tilidagi ohanglar sxemasi - Biểu đồ thanh điệu trong tiếng Việt

1. "ngang (không dấu)"
2. "huyền (dấu huyền)"
3. "sắc (dấu sắc)"
4. hỏi (dấu hỏi)
5. nặng (dấu nặng)
6. ngã (dấu ngã)



AMALIY MASHQLAR - BÀI TẬP THỰC HÀNH

1-mashq. Quyidagi harf va tovushlarni to'g'ri o'qing (*Bài 1: Đọc đúng các chữ cái, tiếng sau*):

	a	i/y	e/ ê	ô	ơ	u/ư
C	ca - cá	-	-	cô	cơ - cờ	cu - cư - cừ
K	-	ki - kĩ	ke - kê - kể	-	-	-
L	la - lá - là	li - lý	le - lê	lô - lộ		
Q	-	-	-	-		qu
N	-	ni - ny	ne - né	-	nơ - nỡ	nu - nur
nh			nhe - nhé	-		
ng				ngô	ngơ - ngờ	ngu - ngư - ngủ
ngh	-	nghi - nghỉ	nghen - nghênh	ngô - nghộ	-	-
kh	kha - khá	khi - khỉ	khe - khế	khôn - không	khơ - khờ - khớ	
G	ga	-	-	gôm - gồm	gơ - gờ	
Gh	-	ghi	ghe - ghê - ghé		-	-

2-mashq. Quyidagi soʻzlarni oʻqish va qayta yozishni mashq qiling

(Bàì 2: Tập đọc và viết lại những chữ sau đây):

	ai	ài	ái	ải	ạì	ãi
c						
k						
l						
q						
n						
nh						
ng						
ngh						
kh						
g						
gh						

3-mashq Quyidagi soʻzlarni oʻqish va qayta yozishni mashq qiling.

(Bàì 3: Tập đọc và viết lại những chữ sau đây):

	oi	òi	ói	ỏì	ọì	õì
c						
k						
l						
q						
n						
nh						
ng						
ngh						
kh						
g						
gh						

4-mashq. Quyidagi so'zlarni o'qish va qayta yozishni mashq qiling

(Bàì 4: Tập đọc và viết lại những chữ sau đây):

	an	àn	án	ản	ạn	ãn
c						
k						
l						
q						
n						
nh						
ng						
ngh						
kh						
g						
gh						

5-mashq. O'qish mashqini bajaring (Bàì 5: Thực hành tập đọc):

bôi	đôi	hôi	môi	tôi	thôi
cối	chối	dối	nối	đối	tối
đôi	ngôi	nôi	nhôi	hôi	môi
ối	nối	nhối	thối	đối	xối
cối	lối	chối	mối	dối	rối
đội	lội	đội	trội	hội	vội

6-mashq. Imlo qoidalari asosida bo'sh joylarni to'ldiring. (Bàì 6: Điền vào chỗ trống dựa trên quy tắc chính tả)

- (a) “c” yoki “k”:ă,ê,ú,óỹ.
 (b) “ng” yoki ngh:ũ,e,hi,ngũ,ô,a.
 (c) “g yoki gh”à,õ,,é,i..... ư,ô.

7-mashq. Quyidagi jadval asosida o'qing (Bàì 7. Luyện đọc theo bảng sau):

	a	o	ô	ơ	e	ê	u	ư	i(y)
b	ba	bo	bô	bơ	be	bê	bu	bư	bi
c (k, q)	ca	co	cô	cơ	ke	kê	cu	cư	ki
ch	cha	cho	chô	chơ	che	chê	chu	chư	chi
d, gi	da	do	dô	dơ	de	dê	du	dư	di
Đ	đa	đo	đô	đơ	đe	đê	đu	đư	đi
g, gh	ga	go	gô	gơ	ge	ghê	gu	gư	gi
h	ha	ho	hô	hơ	he	hê	hu	hư	hi
kh	kha	kho	khô	khơ	khe	khê	khu	khư	khi
L	la	lo	lô	lơ	le	lê	lu	lư	li
m	ma	mo	mô	mơ	me	mê	mu	mư	mi
N	na	no	nô	nơ	ne	nê	nu	nư	ni
ph	pha	pho	phô	phơ	phe	phê	phu	phư	phi
R	ra	ro	rô	rơ	re	rê	ru	rư	ri
S	sa	so	sô	sơ	se	sê	su	sư	si
T	ta	to	tô	tơ	te	tê	tu	tư	ti
th	tha	tho	thô	thơ	the	thê	thu	thư	thi


nh	nha	nho	nhô	nhơ	nhe	nhê	nhu	như	nhi
ng (ngh)	nga	ngo	ngô	ngơ	nghe	nghe	ngu	ngư	nghi
tr	tra	tro	trô	trơ	tre	trê	tru	trư	tri
X	xa	xo	xô	xơ	xe	xê	xu	xư	xi
v	va	vo	vô	vơ	ve	vê	vu	vư	vi

8-mashq. O‘qing va gap tuzing (Bài 8: Thực hành tập đọc và đặt câu):



đi

(yurmoq)



HÖI THOAI: “SIZ MUSHUK BOQASIZMI?”

A: Tên (**ism; nom**) của họ là gì? _____

B: Có, tôi nuôi (**boqmoq**) hai con mèo. Tôi yêu chúng rất nhiều.

A: Tên dễ thương (**yoqimtoy, yoqimli**) quá! Họ bao nhiêu tuổi (necha yosh)? _____

B: Mirmir 3 tuổi và Sariq 1 tuổi. _____

A: Bạn có nuôi mèo không? _____

B: Một là Mirmir, kia là Sariq. _____

A: Họ thích trò chơi (**o‘yin**) gì? _____

B: Có, chúng thích chơi với bóng (**koptok**) và dây (**arqon**)



MUSTAQIL TA'LIM UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

(Câu hỏi và bài tập cho nghiên cứu độc lập)

1. “Một chuyến đi đến sở thú” mavzusida suhbat tayyorlang.
2. Maxsus so‘roq haqida ma’lumotlar bazasini tayyorlang.
3. Do‘stingiz bilan “**Hay (là)**” - “**yoki**” bog‘lovchisi yordamida gaplar tuzib savol-javob amaliyotini bajaring.



“VYETNAMNING POYTAXTI HANOI”

MAVZUSIDA MA'LUMOTLARNI O'RGANING

Vyetnamning poytaxti **Hanoi** hisoblanadi. Hanoi shimoliy Vyetnamda joylashgan bo‘lib, mamlakatning siyosiy, madaniy va iqtisodiy markazlaridan biri sanaladi. Shahar o‘zining boy tarixi, an‘analari va go‘zal tabiati bilan mashhur.

Hanoi haqida qisqacha ma’lumot:

- **Aholisi:** 8 milliondan ortiq (2023-yil ma’lumotlariga ko‘ra).

- **Maydoni:** 3,359 km².

- **Tarixi:** Hanoi 1000 yildan ortiq tarixga ega bo'lib, 1010-yilda **Thang Long** („Uchayotgan Ajdaho“) nomi bilan poytaxt sifatida asos solingan.

- **Mashhur joylari:**

- **Ho Chi Minh maydoni** – Vyetnamning yetakchisi Ho Chi Minh nomi bilan atalgan.

- **Van Mieu** – Vyetnamning birinchi universiteti bo'lgan konfutsiy ibodatxonasi.

- **Hoan Kiem ko'li** – Hanoi ramzlaridan biri.

- **Eski Shahar** – tor ko'chalar, an'anaviy do'konlar va fransuz me'morchiligi bilan mashhur.

- **Iqlimi:** Subtropik iqlim – yozi issiq va nam, qishi nisbatan salqin.

Hanoi, shuningdek, Vyetnam urushi davridagi tarixiy voqealar bilan ham bog'liq. Shahar zamonaviy infratuzilma va an'anaviy madaniyatni uyg'unlashtirgan holda rivojlanmoqda.



MAVZU: *Vyetnam tili alifbosidagi bo‘g‘in oxiri undoshlari; m; p; t; k yopiq bo‘g‘indagi diftonglar va ularning imlo qoidalari. Vyetnam tilida sonlar*

Darsning maqsadi va ularning ifodalanishini nutqda qo‘llash konikmasini shakllantirish; /p/; /t/; /k/ yopiq bo‘g‘indagi diftonglar va ularning imlo qoidalari tushintirish. *Con, người, tờ, bộ, ngôi, tòa* hisob so‘zlari (davomi)ning qo‘llanishi; Vyetnam tilida sonlar va ularning yasalishi haqida ma‘lumotlarga ega bo‘lish va amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish.

Tayanch so‘z va iboralar: fonetika, tovush, unli va undosh tovushlar; bo‘g‘in oxiri undoshlari; yopiq bo‘g‘indagi diftonglar; *Loại từ tiếng việt: con, người, tờ, bộ, ngôi, tòa; Số từ trong tiếng việt. “Làm gì?” so‘rog‘i.*

NGŨ ÂM - FONETIKA

1. Bo‘g‘in oxiri undoshlari (Phụ âm cuối âm tiết):

/m/ (m), /n/ (n) Bu bo‘g‘in oxiri jarangli undosh tovushlarning talaffuzi o‘zbek tilidagi /m/(m) va /n/ (n) tovushlarining talaffuzidan farq qilmaydi.

/p/ (p), /t/ (t), Bu bo‘g‘in oxiri jarangsiz undosh tovushlari (/k/ (c, ch) /k/ (c, ch) haqida navbatdagi darsda ma‘lumot beriladi) portlovchi tovush hisoblansada, talaffuz jarayonida, o‘zbek tilidan farqli ravishda, til qirrasida “portlash”, “sirg‘alish” kuzatilmaydi. Solishtiring:

Tog‘ (núi)

tốt (yaxshi)

2. Yopiq bo‘g‘indagi diftonglar (Âm tiết đóng đôi) Yopiq bo‘g‘inda digtonglar ochiq bo‘g‘indagiga nisbatan qisqaroq talaffuz qilinadi. /p/ , /t/ va /k/ kabi bo‘g‘in oxiri jarangsiz undoshlari bilan kelgan bo‘g‘inlarda yana ham qisqaroq talaffuz qilinadi. Misol: tia-tiêm-tiếp; mua, muốn, mượt;

3. Ohang (Thanh điệu): Bo‘g‘in oxiri jarangsiz undosh tovushlari /p/ (p), /t/ (t) va /k/ (c, ch) bo‘g‘inlarda aksariyat “chiquvchi” va “keskin portlovchi” ohanglar kuzatilishi mumkin.

IMLO QOIDALARI - QUY TẮC CHÍNH TẢ

Bo‘g‘in hosil qiluvchi qisqa “ă” unli tovushi yopiq bo‘g‘inlarda bo‘g‘in oxiri undosh tovushlari bilan kelganda yozuvda “ă” harfi bilan ifodalanadi.

Misol: cắm, tắm, ắn, xoắn, hoặc....

AMALIY MASHQLAR - BÀI TẬP THỰC HÀNH

1-mashq. Quyidagi harf va so‘zlarni to‘g‘ri o‘qing (*Bài 1: Đọc đúng các chữ cái, tiếng sau*):

ă	ằ	ắ	ẳ	ặ	ẫ
bắ	cắ	chắ	hắ	tắ	nắ
bằ	dằ	cằ	hằ	nằ	rằ
cắ	đắ	khắ	lắ	mắ	tắ
thằ	ằ	dằ			

2-mashq. Quyidagilarni o‘qing va gap tuzishni mashq qiling
(Bàì 2: Tập đọc và đặt câu lại những chữ sau đây):



chăm chỉ
tirishqoq



năm mới
yangi yil



cây tăm
tish cho ‘pi



tắm rửa
cho ‘milmoq



cái cằm
iyak



nằm ngủ
uxlamoq



một dặm
1 milya

Sai một ly,
đi... một dặm



trăm sóc
g‘amxo‘rlik qilmoq



ăn cơm
ovqatlanmoq



gạo trắng
Oq guruch



mặt trăng
Oy



rửa mặt
yuzni yuvmoq

3-mashq. O‘qing va tarjima qiling (3. Đọc và dịch)

1. Đây là mẹ con. _____
2. Mẹ chăm sóc em bé. _____
3. Họ ăn cơm ở nhà hàng. _____
4. Tôi rửa mặt và ăn sáng. _____
5. Mặt trăng rất đẹp. _____
6. Em ấy không ăn gạo trắng. _____
7. Em bé nằm ngủ. _____
8. Cái cằm cô ấy đẹp. _____
9. Bố mẹ giúp ăn cơm con. _____
10. Cô ấy chăm chỉ học. _____

4-mashq. O‘qing va tarjima qiling (4 . Đọc và dịch)

1. Bola yuzini yuvdi. _____
2. Men yangi yilini yoqtiraman. _____
3. Uning sariq ko‘ylagi chiroyli. _____
4. Ota-onam g‘amxo‘rlik qiladi. _____
5. Uning burni va iyagi chiroyli. _____
6. Ayiq kuni bilan yurdi va charchadi. _____
7. Buvida tish cho‘pi bor. _____
8. Bolakay cho‘milishni yoqtiradi. _____
9. Bu changyutgich katta. _____
10. Mushugim juda sezkir.

GRAMMATIKA - GHI CHÚ NGỮ PHÁP

1. Con, người, tờ, bộ, ngôi, tòa hisob so‘zlari (davomi):

Hisob so‘zlar narsa va buyumlarni harakterlab, sinflarga ajratishi haqida avvalgi darslarimizda qisqacha ma’lumotlar berildi. Bu darsimizda ayrim hisob so‘zlarning hususiyatlari haqida o‘rganamiz.

Vyetnam tilidagi hisob so‘zlar asl hisob so‘zlari va tub ma’noga ega bo‘lgan hisob so‘zi vazifasini bajaruvchi hisob so‘zlarga ajratiladi. Shuningdek, bir hisob so‘zining bir necha ot so‘zlari bilan qo‘llanishi mumkin va bu o‘z o‘rnida hisob so‘zidan keyin kelayotgan so‘z ma’nosiga ta’sir etishi mumkin. Albatta bu hamma hisob so‘zlariga tegishli ta’rif emas.

Con tub ma'nosi "bola" degan ma'noni anglatadi. Bu so'z ham mustaqil so'z ham hisob so'zi vazifasida qo'llaniladi. Hisob so'z sifatida jonivorarni, xususan, barcha turdagi hayvon, chumchuqlar, baliqlarni ko'rsatuvchi hisob so'zidir. Misol:

con bò - "sigir"; **con chó** - "kuchuk"; **con mèo** - "mushuk"; **con sư tử** - "sher"; **con cá** "baliq"; **con chim** - "qush"; **con trâu** - "ho'kiz".....

Eslatma: Con hisob so'zi ayrim jonsiz, qo'l bilan harakatlantirish mumkin bo'lgan narsalarni ko'rsatishda ham qo'llaniladi. Misol:

con dao - "pichoq"; **con thuyền** - "qayiq"; **con mắt** - "ko'z" (ko'zning bir donasiga nisbatan)....

Người - "**odam**" deb tarjima qilinib, insonlarni, kasb egalarini ko'rsatishda qo'llaniladi. Misol:

người bạn - "o'rtoq"; **người học sinh** - "o'quvchi"...

Tờ hisob so'zi varoq, hujjat, gazeta, qog'oz ko'rinishidagi narsalarni ko'rsatishda qo'llaniladi. Misol:

tờ giấy - qog'oz (A4 qog'oz va shunga o'xshash); **tờ báo** - "gazeta";

Bộ - "komplekt", "to'plam", davlat idoralarini hamda filmlarni ko'rsatishda qo'llaniladi. Misol:

bộ bàn ghế - "mebellar to'plami"; bộ phim - "kino film"; Bộ ngoại giao - "Tashqi ishlari vazirligi"....

Ngôi, tòa - uy va yirik qurilish inshoatlari uchun qo'llaniladigan hisob so'z. Misol:

Ngôi nhà "uy", "hovli uy", tòa nhà - "bino".

2. Số đếm tiếng Việt từ 0 – 10

Vietnam tilida sonlar (số đếm) o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular tizimi turlicha qoidalarga asoslangan. Vyetnam tili 10 lik sanoq tizimidan foydalanadi, ya’ni sonlar 1 dan 10 gacha asosiy so‘zlarga ega, keyin esa ularning kombinatsiyalari orqali kattaroq sonlar hosil qilinadi. Vetnam raqamlarini, ayniqsa 0 dan 10 gacha raqamlarni o‘rganish juda muhimdir. Chunki aynan 0 dan 10 gacha bo‘lgan sonlar - keyingi katta raqamlar to‘g‘ri o‘rganishimiz uchun asos bo‘ladi.

Quyidagi jadvalda Vetnam tilida 0 dan 10 gacha raqamlarni o‘qishni o‘rganishimiz mumkin.

Số đếm	Tiếng Việt	Tiếng Uzbek	Ví dụ
0	không	nol	
1	một	bir	<u>một</u> quả táo (bir dona olma)
2	hai	ikki	<u>hai</u> chiếc hộp (ikkita quti)
3	ba	uch	<u>ba</u> chiếc ô (uchta soyabon)
4	bốn	to‘rt	<u>bốn</u> cái túi (to‘rtta sumka)
5	năm	besht	<u>năm</u> thỏi son (beshta lab bo‘yog‘i)
6	sáu	olti	<u>sáu</u> con voi (oltita fil)
7	bảy	yeti	<u>bảy</u> cái bát (yettita piyola)
8	tám	sakkiz	<u>tám</u> cái bút (sakkizta ruchka)

9	chín	to‘qqiz	chín quả cam (to‘qqizta apelsin)
10	mười	o‘n	mười ngón tay (o‘nta barmoq)



O‘nlikdan keyingi sonlar:

Mười + số hàng đơn vị
mười + birlik

11 Mười Một	20 Hai mươi
12 Mười Hai	30 Ba mươi
13 Mười Ba	33 Ba mươi ba
14 Mười Bốn	42 Bốn mươi hai

Eslatma! Ikki xonalik sonlarda bir qator fonetik o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Masalan:

15 raqamiga kelganda “besh” sonini “năm” deb emas, balki “lăm” deb talaffuz qilinadi. “Năm” so‘zini o‘zbek tiliga tarjima qilinganda “yil” ma‘noni anglatadi. Mười năm - deb aytilganda “o‘n besh yil”, - degan ma‘noni ifodalaydi.

Shuningdek, 20 (ygirma) sonidan 29 (ygirma to‘qqiz)gacha bo‘lgan sonlarda ham bir qator fonetik o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Ular:

- (1) 20 (ygirma) soni 2 (ikki) va 10 (o‘nlik)dan tashkil topishini yuqorida o‘rgandik. Birinchi fonetik omótzgarish 20 dan yuqoqi o‘nliklarda ya‘ni 99 gacha bo‘gan sonlar tarkibidagi o‘nliklarning barchasida “mười” so‘zidagi “*tushuchi ohang*” → *mười* “*yengil ohang*”ga o‘zgaradi.

hai mươi emas → hai mươi 20 → hai mươi; 30 → ba mươi

92 → chín mươi; 99 → chín mươi chín

- (2) “một” - “bir” soni “keskin kuchli portlovchi” ohangda talaffuz qilinadi. 20 (yigirma) sondan keyin keladigan barcha 21, 31, 41, 51 va undan yuqori sonlarda ohang “chiquvchi ohang”ga y’ni “môt” ga o’zgaradi: 20 - “hai mươi môt”; 30 - “ba mươi môt”; 40 - “bốn mươi môt”.
- (3) 24 soni va undan yuqori 34, 44, 5494 sonlaridagi “to’rt” “bôn”dan “tư”ga o’zgaradi: 24 - “hai mươi tư”; 34 - “ba mươi tư”; 44 - “bốn mươi tư”; 55 - “năm mươi tư”; 94 - “chín mươi tư”.
- (4) 25, 35, 45,95 sonlari tarkibidagi “năm” → “lăm” yoki “nhăm”ga o’zgaradi: 25 - “hai mươi lăm” (nhăm); 35 - “ba mươi lăm” (nhăm).; 95 - “chín mươi lăm” (nhăm).

Birinchi o’nlikdagi birlik son+ mươi+ Birinchi o’nlikdagi birlik son

hai mươi môt - 21

hai mươi hai - 22

hai mươi ba - 23

hai mươi tư (bôn) - 24

hai mươi lăm (nhăm) - 25

hai mươi sáu - 26

Vetnam tarixi ikkita raqam tizimini qayd etadi: biri sof vetnamcha so'zlardan, ikkinchisi esa Xitoy-Vetnamcha so'zlardan foydalanadi. Zamonaviy Vyetnam tilida sof vetnamcha so‘zlar matematikada ham, kundalik hayotda ham qo‘llaniladi, Xitoy-Vetnam so‘zlari asosan maxsus kontekstlarda paydo bo‘ladi va sof vetnamcha so‘zlar yetarli bo‘lmaganda ko‘pincha millionlab yoki undan ko‘p sonlarni sanashda qo‘llaniladi.

Son tilshunoslikda — mustaqil so‘z turkumlaridan biri; predmetning miqdorini, sanoq jihatdan tartibini bildiruvchi so‘zlar guruhi. Son ham sifat va

ravish kabi belgi tasavvurini bildiradi va shu jihatdan o'sha turkumlarga yaqin turadi. Sifat predmetning belgisini, ravish harakatning belgisini, Son esa predmetning miqdori, sanog'i va tartibiga kura belgisini bildiradi. Sonlar otlar bilan birga qo'llanib, bir necha predmetlarning yig'indisini, aniq miqdorini (beshta kitob) yoki noanik, miqdorini (o'ntacha bola) ifodalaydi. Son harflar bilan ifodalanadi (bir, o'n, ellik) yoki arab va rim raqamlari bilan (3, 5, 10, V, IX, XX) ko'rsatiladi.

Sonlar ma'no xususiyatiga ko'ra, 2 asosiy turga bo'linadi: miqdor sonlar va tartib sonlar. Miqdor Sonlar predmetning miqdori, sanog'iga ko'ra belgisini ko'rsatadi

Vyetnam tilida miqdor sonlar¹ bevosita sanalayotgan otlar oldidan joylashadi. Hisob so'zlar mavjud bo'lgan holatlarda esa, hisob so'zlar oldidan joylashadi. Ya'ni:

Son+hisob so'zi+ot

Misol: **hai người** - "ikkita odam"; **sáu sinh viên** - "oltita talaba"; **ba quyển sách** - "uchta kitob"; **bốn con khỉ** - "to'rta maymun"....

Eslatma! Hisob so'zlar miqdor sonlar bilan birikkanda ilgari aytib o'tilgan ob'ektlar, shaxslar va boshqalarni almashtirish uchun mustaqil ravishda qo'llanishi ham mumkin. Masalan: Bạn mua ba quyển sách: hai quyển tiếng Việt và một quyển tiếng Anh. - "Do'stim uchta kitob sotib oldi: ikkita Vyetnam tili va bitta ingliz tili".

3. Miqdor sonlarga nisbatan maxsus so'roq (savol) qo'yish:

Vietnam tilida miqdor sonlarga nisbatan maxsus so'roq quyidagilardir:

1. **"Bao nhiêu?"** – "Necha?" (umumiy miqdor yoki son haqida so'rash)
 - o "Bạn có bao nhiêu quyển sách?" – "Sizda necha kitob bor?"

¹ O'zbek tilida miqdor sonlar 6 turga bo'linadi: sanoq son, dona son, chama son, jamlovchi son, taqsim son va kasr son. O'zbek tili grammatikasi, 1j.; T., 1975; Hozirgi o'zbek adabiy tili, 1-qism, T., 1980. Abduvahob Madvaliyev. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Son_\(tilshunoslik\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Son_(tilshunoslik)).

2. **“Mấy?”** – **“Necha?”**(kichik sonlar, odatda 10 dan kam bo‘lganda)
 - **“Nhà bạn có mấy người?”** – **“Uyingizda necha kishi bor?”**
3. **“Bao lâu?”** – **“Qancha vaqt?”** (vaqt miqdori haqida)
 - **“Bạn học tiếng Việt bao lâu rồi?”** – **“Siz vyetnam tilini qancha vaqt o‘qigansiz?”**
4. **“Bao xa?”** – **“Qancha masofa?”** (masofa haqida)
 - **“Từ đây đến Hà Nội bao xa?”** – **“Bu yerdan Hanoygacha qancha masofa?”**
5. **“Bao nhiêu tuổi?”** – **“Necha yosh?”**(yosh so‘rash)
 - **“Em bao nhiêu tuổi?”** – **“Sen necha yoshdasan?”**

Eslatma:

- **“Bao nhiêu”** – ko‘proq aniq sonlar uchun ishlatiladi.
- **“Mấy”** – faqat 1-10 oralig‘idagi taxminiy sonlar uchun ishlatiladi.

Misol: **Cháu mấy tuổi** - **“Yoshing nechchida?”**. (So‘zlovchi suhbatdoshining yoshi 10 yoshga yetmaganligini ko‘rib, fahmlab turib savol beryapti).

Cháu bao nhiêu tuổi - **“Yoshingiz nechchida?”**. (So‘zlovchi suhbatdoshining yoshi 10 yoshdan yuqori ekanligini aniq bilib fahmlab turib savol beryapti).

Yoki: - **Anh mua mấy quyển sách?** - **“Siz nechta kitob sotib oldingiz?”**

- **Tôi mua bốn quyển sách.** - **“Men to‘rtta kitob sotib oldim”.**

- **Chị đọc bao nhiêu quyển sách?** - **“Siz nechta kitob o‘qidingiz?”**

- **Tôi đọc mười lăm quyển sách.** - **“Men 15 ta kitob o‘qidim.”**

Eslatma!

Agar savol **bao nhiêu** so‘zi bilan hisob so‘zli otga nisbatan qo‘yilsa, bu holda hisob so‘zi tushirilib qoldiriladi.

Chị có bao nhiêu túi - “Sizda nechta sumka bor?”.

Va aksincha **mấy** bilan savol berilganda, hisob so‘zi albatta qo‘llaniladi.

Chỉ có mấy **cái** túi? - “Sizda nechta (necha **dona**) sumka bor?”.

4. Vyetnam tilida fe‘l kesimga nisbatan “làm gì?” - “nima qilmoq?/ nima qilyapti?” so‘rog‘i bilan amalga oshiriladi.

"Làm gì?" so‘roq gap “nima qilyapsiz?” yoki “nima qilmoqchisiz?”, - degan ma‘noni anglatadi. Bu so‘zma-so‘z “làm” (qilmoq) va “gì” (nima) so‘zlarining birikmasidan hosil bo‘lgan.

○ Oddiy so‘roq sifatida:

- “Bạn đang làm gì?” – “Siz nima qilyapsiz?”
Javob: “Tôi đang học bài.” – “Men dars qilyapman.”
- “Tôi nay bạn định làm gì?” – “Bugun kechqurun nima qilmoqchisiz?”
Javob: “Tôi định đi xem phim.” – “Men kinoga bormoqchiman.”

○ Hayrat yoki norozilik bildirishda:

- “Làm gì kêu to thế?” – “Nima qilyapsiz, shuncha shovqat qilib?”
- “Anh làm gì vậy?” – “Nima qilyapsiz (ajablanarli harakat)?”

○ Takroriy so‘roq shakllari:

- “Làm gì mà vội thế?” – “Nima qilyapsiz, shuncha shoshilyapsiz?”
- “Làm gì mà buồn vậy?” – “Nima qilyapsiz, shuncha xafa bo‘lib?”

○ “Làm gì”ning boshqa variantlari:

- “Đang làm cái gì đấy?” – “Hozir nima qilyapsiz?” (informal)
- “Định làm gì tiếp theo?” – “Keyin nima qilmoqchisiz?”

- **Eslatma:** “Làm gì” so‘z birikmasi kontekstga qarab **neytral** so‘roq yoki **hayrat/tashvish** ifodalashi mumkin. Nutqda ohang muhim rol o‘ynaydi.
- Misol:
 - “**Em làm gì thế? Dừng lại ngay!**” – “Nima qilyapsan? Darhol to‘xta!” (qattiq ohang)
 - “**Chiều nay làm gì?**” – “Kechqurun nima qilamiz?” (soddashtiruvchi)
- Vyetnam tilida so‘roqlar ko‘pincha “**gì**” (**nima**), “**ai**” (**kim**) so‘zlar yordamida hosil qilinadi. “Làm gì” esa faqat **harakatga taalluqli** so‘roqdir.

GRAMMATIK MAVZUGA DOIR AMALIY MASHQLAR

BÀI TẬP THỰC HÀNH THEO NGỮ PHÁP

1-mashq. Bo‘sh joylarni to‘ldiring (Điền vào chỗ trống):

- 1) Chị ấy có _____ nhà? Chị ấy có 2 _____ nhà.
- 2) Bà bán _____ áo sơ mi? Bà bán 11 áo sơ mi?
- 3) Bố mẹ có _____ con? Bố mẹ có ba con.
- 4) Bạn có _____ cái bút? Bạn có 6 cái bút.
- 5) Tôi có hai _____ bạn.
- 6) _____ táo kia có quả.
- 7) Mẹ có _____ báo . _____ báo đó mới.
- 8) Bố mua năm _____ cảm. Một _____ to, _____ quả nhỏ.
- 9) _____ nhà này _____ . _____ nhà kia mới.
- 10) _____ phim đó hay. Chúng ta đi xem phim nhé.

2-mashq. Quyida berilgan sonlarni vyetnamcha o‘qing (*Đọc các số sau bằng tiếng Việt*):

3, 23, 26, 65, 68, 19, 9, 11, 81 91, 64, 75, 96, 12, 30, 41, 18, 25, 99, 36, 54, 46, 16, 44, 51, 67, 14, 100, 35, 20, 73, 22, 31, 15, 55, 90, 70, 85, 17.

3-mashq. O‘qing va tarjima qiling (*Đọc và dịch*)

1. Cửa hàng bánh mì (*non do ‘kon*) này có bánh mì _____.
2. Nhà ông nội (*bobo*) có con chó lớn _____.
3. Đôi giày (*yopabzal*) này to quá _____.
4. Em thích con búp bê nhỏ này _____.
5. Anh Khụng gầy **như** (*huddi; -dek*) que tăm _____.
6. Em thích **mặc** (*kiymoq*) quần có túi _____.
7. Con gấu sống **trên** (*ustida*) ngọn núi cao _____.
8. Bố **mời** (*taklif qilmoq*) **bác sĩ** (*shifokor*) vào nhà. _____.
9. Xin **cởi** (*yechmoq*) giày khi vào nhà _____.

4-mashq. Yod oling va qayta yozing (*Học thuộc lòng và viết lại*):

tháng Một	_____	_____
tháng Hai	_____	_____
tháng Ba	_____	_____
tháng Tư	_____	_____
tháng Năm	_____	_____
tháng Sáu	_____	_____
tháng Bảy	_____	_____
tháng Tám	_____	_____

tháng Chín	_____	_____
tháng Mười	_____	_____
tháng Mười Một	_____	_____
tháng Mười Hai	_____	_____

5-mashq. O‘qish, gapirish va tarjima qilishni mashq qilish (Thực hành đọc, nói và dịch):

I. Hội thoại cách nói ngày tháng năm

1. **Mỹ Hoa** mới sang Việt Nam, muốn biết một số ngày lễ, tết của Việt Nam, **Mỹ Hoa** hỏi **Cô Liên Hoảng**, **Cô Liên Hoảng** trả lời:

Nhân dân Việt Nam sử dụng cách tính ngày tháng theo dương lịch và âm lịch. Một số lễ hội được tổ chức theo âm lịch, thường là mùa xuân.

Ví dụ: Hội Lim được tổ chức vào ngày 13 tháng Giêng âm lịch. Hội Gióng ngày 9 tháng Tư.

Còn ngày tết lớn nhất của Việt Nam là Tết Nguyên Đán, thường vào tháng Giêng hoặc tháng Hai dương lịch.

2. Hỏi ngày sinh nhật

Ba-kho-đi-r: Sắp đến ngày sinh nhật của mình rồi.

Golib: Ngày nào?

Ba-kho-đi-r: Mồng năm tháng mười hai.

Golib: Thế thì cậu sinh trước mình hai mươi một ngày. Mình sinh ngày hai mươi sáu nhưng tháng thì khác.

Ba-kho-đi-r: Cậu sinh tháng nào?

Golib: Tháng chín .

3. Hỏi về ngày, tháng, năm

Kha- đi - cha: *Cô Hoa* ơi! Ngày thứ nhất của tháng gọi là ngày mùng một hay mùng một?

Cô Hoa Gọi mùng một hay mùng một đều được.

Kha- đi - cha: Thế tháng thứ mười hai gọi là gì?

Cô Hoa Gọi là tháng mười hai hoặc là tháng Chạp.

Kha- đi - cha: Khi nào thì gọi là tháng Chạp hử chị?

Cô Hoa: Khi nói tháng âm lịch thì người ta nói tháng Chạp.

Ngữ vựng - *Lug‘at*

một số bir necha; bir nechta

ngày lễ bayram kunlari

nhân dân xalq

sử dụng foydalanmoq

cách tính hisoblash usuli

dương lịch quyosh taqvimi

âm lịch oy taqvimi

tổ chức nishonlamoq **ngày sinh nhật** tug‘ilgan kun

mùa xuân bahor

Tết Nguyên Đán Tet Nguyen Dan (*Yangi yil*)

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

(Câu hỏi và bài tập cho nghiên cứu độc lập)

1. “Một ngày của mình” mavzusida suhbat tayyorlang.
2. Vyetnam tilida sonlar va ularning yasalishiga oid bilim va ko'nikmalarni mustahkamlang.
3. Vyetnam milliy bayramlari haqida ma'lumotlar bazasini hosil qiling.
4. “HALONG” haqida bilarmidingiz?

Halong shahri (vietnamcha: **Thành phố Hạ Long**) — Vyetnamning shimoli-sharqidagi **Quang Ninh provinsiyasining** markazi bo'lib, **Tonkin ko'rfazi** sohilida joylashgan. Shahar o'zining ajoyib tabiati va **Halong ko'rfazi** (UNESCONing Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan) bilan mashhur. *Asosiy ma'lumotlar:*

- **Aholisi:** ~300 ming kishi (2023-yil ma'lumotlari).
- **Iqlimi:** Subtropik musson iqlimi – yozi issiq va nam, qishi salqin.
- **Iqtisodiyoti:** Ko'mir qazib olish, turizm, port faoliyati (Halong porti muhim transport markazi).

Diyorining diqqatga sazovor joylari:

1. **Halong ko'rfazi** – Minglab karst tog'lari¹ va g'orlari bilan mashhur.
2. **Bai Tho tog'i** – Shahardan Halong ko'rfazining panoramali manzaralarini ko'rish mumkin.

¹ **Karst tog'i** — bu yer yuzasida suvning ta'siri (asosan, yog'ingarchilik suvlari va erigan suvlar) natijasida karbonatli jinslar (ohaktosh, dolomit, gips) ning erishi va yemirilishi oqibatida hosil bo'lgan relyef shakllaridan iborat tog'li hudud. Mashhur karst tog'lari va hududlar:

- **Sloveniyadagi Kras platosi** („Karst“ atamasi shu yerdan keladi)
- **Xitoydagi Guylin tog'lari** (dunyo bo'yicha eng mashhur karst landshafti)
- **Vyetnamdagi Halong ko'li**
- **O'zbekistonda esa, Zomin tog'lari va Hisor tizmasining** ba'zi qismlarida karst relyefi uchraydi. Karst landshaftlari tabiatning ajoyib manzaralarini yaratadi, lekin qurilish va qishloq xo'jaligi uchun qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin.

3. **Tuan Chau oroli** – Dam olish maskani va ko‘ngilochar infratuzilma.
4. **Sun World Halong Park** – Katta o‘yin parki va tematik diyorlar.
5. **Quang Ninh muzeyi** – Viloyat tarixi va madaniyatiga oid eksponatlar.

Transport va sayyohlik:

- **Halongga borish:** Hanoidan avtobus (2-3 soat) yoki tezyurar poyezd bilan yetib borish mumkin.
- **Halong ko‘rfazi ekskursiyalari:** Kema safarlari (1-3 kunlik) tashkil etiladi.

Halong – tabiat bilan zamonaviy infratuzilmaning uyg‘unlashgan noyob shahri bo‘lib, har yili millionlab sayyohlarni jalb qiladi.



MAVZU: Vyetnam tili alifbosidagi /ŋ/ (ng, nh) va /k/ (c, ch) bo'g'in oxiri undoshlari. Vyetnam tilida inkor va rad etish farqi

Darsning maqsadi: /ŋ/ (ng, nh) va /k/ (c, ch) bo'g'in oxiri undoshlari va ularning ifodalanishini nutqda qo'llash konikmasini shakllantirish; Vyetnam tilida inkor va rad etish va farqlashni tushintirish amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish.

Tayanch so'z va iboralar: fonetika, tovush, unli va undosh tovushlar; Chiếc, quyển, cuốn, bức; Loại từ tiếng việt: chiếc, quyển, cuốn, bức; “Không” “không phải”;có không?;

FONETIKA - NGỮ ÂM

/ŋ/ (ng, nh) va /k/ (c, ch) bo'g'in oxiri undoshlari: uch xil ko'rinishda ifodalanadi. - phụ âm cuối âm tiết

1. Til o'rta undoshlari /ω/, / ỹ /, /a/ va / ă/*dan keyin yuqoridagi uch diftonglar o'zining asosiy ko'rinishida, ya'ni /ŋ/ va /k/ ko'rinishida namoyon bo'ladi. Aniqroq aytadigan bo'lsak yumshoq tanglayga tegib hosil bo'ladigan chuqur til orqa, yozuvdagi “ng” va “c” tovushi kabi ifodalanadi.



13-rasm

đúng - đúc

tiếng - tiếc

đáng - đắc

tướng - tước

đáng - đắc

tuồng - tuốc

đắc - đắc

(13-rasmga

qarang).

***Eslatma:** /ŋ/ (ng, nh) va /k/ (c, ch) tovushlari til o'rta unlisi bo'lgan /ɣ/ (ơ) tovushidan keyin uchramaydi.

2. /ŋ/ (*ng, nh*) va /k/ (*c, ch*) tovushlari /u/, /o/, /ɔ/ kabi til orqa unlilaridan keyin kelganda talaffuz jarayonida labiovelar, ya'ni lablar yumaloq shaklda: /ŋ^m/ va /k^f/ kabi talaffuz qilinadi. Unli tovushlar talaffuzida lablarning ishtiroki sezilarli darajada bo'lishiga qaramay tovush talaffuzi tugayotganda lablarda yopiqlik holati yuzaga keladi. To'liq lablanish, ya'ni lablar yumaloq holatda tovush boshlanib, lablar bir biriga tegib havoni tosgan holatida tovush tugaydi. (14-rasmga qarang).

đúng - đúc

đống - đóc

đóng - đóc



14-rasm

Shuningdek, lablangan unli tovushlar talaffuzining boshlang'ch nuqtasida lablanish holati til o'rta undoshlari talaffuziga yaqin bo'lib, faqat tovush talaffuzining oxiri nuqtasiga kelgandagina lablarning yumaloq holatda ekanligi sezilarli darajada bo'ladi (*uchburchak sxemaga qarang*).

mùng /mw^uŋ^m2/


mục /mwak^f6/

mông /mɔ^uŋ^m2/

mộc /mɔ^uk^f6/

mòng /mǎ^uŋ^m2/

mọc /mǎ^uk^f6/



3. /i/, /e/ va /ɛ/ kabi til oldi unlilaridan keyin /ŋ/ va /k/ bo'g'in oxiri undoshlari sezilarli darajada oldingi, til o'rtasiga yaqin o'rinda (tilning orqa qismidan til o'rtasiga yaqinroq o'rinda) xuddi /ŋ/ va /c/ (yozuvda nh va ch bilan ifodalanuvchi) til o'rta undoshlari kabi biroz orqaga tortilgan holatda talaffuz qilinadi. (15- rasmga qarang).



15-rasm

AMALIY MASHQLAR - BÀI TẬP THỰC HÀNH

1-mashq. O‘qishni mashq qilish (Bài 1: Thực hành tập đọc):

Quyidagi bo‘g‘inlarda /ŋ/ (ng) tovushi yuqori yumshoq tanglayga itarilib xuddi chuqur til orqa undoshi kabi talaffuz qilinishiga e’tibor qiling.

ngang – làng – xàng – báng – giàng – những – trạng

thăng – trắng – rằng – nhắng – ngắng – hắng – chặng

dâng – vàng – vàng – bang – ngắng –ngắng – hắng – nặng

ngừng – cừng – trứng – hứng – sửng – lựng

ngiêng – giềng – miềng – nhiềng – khiềng – triệng

chương – nhường – sường – hưởng – ngưỡng – truong

chuông – luông – xuống – uống – muống – ruộng

choàng – loang – hoàng – khoảng – quặng – quảng – thoảng

toáng – khuâng – quầng

2-mashq. O‘qishni mashq qilish (Bài 2: Thực hành tập đọc):

Quyidagi bo‘g‘inlarda /k/ (c) tovushining yuqori yumshoq tanglayga itarilib, “jarangsiz”, xuddi chuqur til orqa undoshi kabi talaffuz qilinishiga e’tibor qiling.

bác – bắc – bắc – bức – bước – buộc – biếc

các – cắc – cắc – cuộc – chiếc – chức – chước

đạc – đặc – được – điếc – đuốc – đức

giặc – giác – giắc – hoặc – hắc

nhác – chắc – bức – liếc – xước – nhuộm – nước
ngạc – sắc – lực – xiệc – nhược
quác – ngoặc – loặc – khoác – nhức – ngực – khắc
mức – mắc – mac – lựợc – guốc
xức – vác – vựợc – tức – trực – trác – thựcđ

3-mashq. O‘qishni mashq qiling (Bài 3: Thực hành tập đọc):

Quyidagi bo‘g‘inlarda /η/ va /k/ tovushlarining lablar ishtirokiga ko‘ra talaffuz qilinishiga ahamiyat bering.

trung – sùng – ngúng – khủng – dững – bụng – cung – tung – hung
không – nhồng – chống – tông – ngỗng – mông – sông – đông
xong – vòng – phóng – lòng – ngông – trọng
bọc – tóc – khóc – thóc – chọc – đọc – học – lọc
bộc – tức – mộc – sộc – xc – ngốc
nhục – chúc – bực – thực – ngực – lúc – trực

4-mashq. O‘qishni mashq qiling (Bài 4: Thực hành tập đọc):

*Quyidagi bo‘g‘inlarda til o‘rta tugashi holatiga ahamiyat bering.
Shuning bo‘g‘in hosil qiluvchi unlilarning talaffuziga e’tibor qiling.*

bi – binh	min – minh	kền – kềnh
bê – bênh	mìn – mìngh	man – manh
ba – banh	lên – lèngh	màn – mành

sinh – hình – chính – đĩnh – tĩnh – lĩnh – khuynh

xên – dên – chén – khên – nghên – mên – xuên

chanh – ngành – tránh – cảnh – lãnh – tạnh – hoành

ký – kích

inh – ích

khít – khích

cát – cắt – cách

mế – méch

kên – kéch

nghit – nghịch

mạt – mặt – mạch

khá – khách

lanh – lách

chết – chéch

mệt - mệch

trích – nhéch – xách

xích – chéch – ngách

lịch – nghệch – tạch

dịch – mệch – sạch

5-mashq. O‘qishni mashq qilish (Bài 5: Thực hành tập đọc):

Quyidagi bo‘g‘inlarda bo‘g‘in oxiri undoshlar talaffuziga ahamiyat bering.

chun – chum – chung

còn – còm – công

lùn – lùm – lùng

mon – mom – mong

bôn – bôm – bông

tôn – tòm – tông

cúp – cúc

ang – ác

chiêng – chiếc

mát – mac

tiết – tiếc

cụp – cụp

đăng – đắc

cương – cươc

mặt – mặc

tướt – tước

lóp – lóc

bâng – bắ

chuông – chuốc

bập – bậc

buột – buộc

lập - lợc

búng – búc

mút – mức

top – tóc

top – toc

6-mashq. Tinglash va ohang belgilarini joylashtirishni mashq qiling

(Bài 6: Thực hành nghe và đặt dấu thanh điệu):


Tnh, kênh, chung, cắng, cương, đanh, giang, nhac, sach, vach, xôc, toc, tông, trươc, cung, hình, chnh, đnh, tnh, linh, khuynh, xênh, dênh, chênh, khênh, nghênh, mênh xuênh.

7-mashq. O'qing va gap tuzing (Bài 7: Thực hành tập đọc và đặt

câu:



quả cam
- apelsin



phía nam
-janub tomon



hàm răng - tishlar



trạm xăng - yoqilg'i quyish shoxobchasi



bộ óc - miya



cái thác - sharshara



thùng rác - axlat qutisi



màu sắc - rang



giấc ngủ - uyqu



sung sướng - baxtli

8-mashq. O‘qing va diktant yozishni mashq qiling. (Bài 8: Thực hành tập đọc và viết chính tả):

Bao Lì Xì Đỏ

Hôm nay là **Mùng Một** Tết. Em thức dậy thật **sớm** và mặc quần áo mới. Em không **quên** việc **đầu tiên** là chúc tết ba má. Em **chúc** ba má một năm mới **an khang** và **thịnh vượng**. Ba má lì xì tiền và chúc cho em một năm mới học hành **tấn tới**. Cầm bao lì xì đỏ trong tay, em **cảm thấy** thật **sung sướng**.



Ngữ vựng - Lug‘at

bao	<i>konvert; sumka</i>
Lì Xì Đỏ	<i>pul solingan (Qizil) konvert</i>
mùng một	<i>birinchi kun</i>
thức dậy	<i>uyg‘onmoq</i>
thật	<i>haqiqat, haqiqatdan</i>

sớm	<i>vahli</i>
quên	<i>unutmoq</i>
đầu tiên	<i>avval; ilk</i>
chúc	<i>tabrikلامoq, qutلامoq</i>
an khang	<i>salomatlik</i>
thịnh vượng	<i>farovon; gullab-yashnamoq</i>
tấn tới	<i>astoydil</i>
cầm	<i>ushlab turmoq</i>
cảm thấy	<i>his qilmoq</i>
sung sướng	<i>baxtli</i>



GRAMMATIKA - GHI CHÚ NGỮ PHÁP

1. *Chiếc, quyển, cuốn, bức* hisob soʻzlari

Chiếc (dona) hisob soʻzi - narsalar uchun qoʻllaniladigan hisob soʻz.

M: **chiếc áo** - erkaklarning yenglik koʻylagi; **chiếc bát** - piyola, kosa.


Quyển (tom) - kitob, daftarlar uchun hisob soʻz: **quyển sách** - kitob; **quyển vở** - daftar.

Cuốn (pachka; boʻlam; rulon,) oʻram holatidagi narsalar uchun hisob soʻz: **cuốn sách** kitob (pachka, bogʻlam), **cuốn giấy** - rulon qogʻoz.

Bức (rasm, tablitsa, roʻhat) - kvadrat yoki toʻgʻri toʻrtburchak boʻlgan yuzasi yassi narsalar uchun hisob soʻz: **bức tranh** - kartina, rasm; **bức thư** - maktub; **bức tường** - devor.

Bir qator ot soʻzlari turli hisob soʻzlari bilan oʻllanishi mumkin. Masalan:


(1)



(2)

cái	chiếc	con
• thuyền qayiq	• thuyền qayiq	• thuyền qayiq

(3)



2. “*Không*” - “yo‘q”, “*không phải*” - “*noto‘g‘ri*”, “*emas*” inkori.

Vyetnam tilida inkor (“yo‘q” ma’nosini bildirish) uchun asosan “**không**” va “**không phải**” so‘z birikmalari ishlatiladi. Ularning farqi va qo‘llanilishini quyidagi misollar bilan tushuntiraman:

1. “*Không*” – Oddiy inkor

• “**Không**” so‘zi oddiy inkor uchun ishlatiladi, ko‘pincha **sifatlar** yoki **fe’llar** oldidan keladi.

• Misollar:

- *Tôi không hiểu.* – Men tushunmayapman.
- *Cô ấy không vui.* – U xursand emas.
- *Anh ấy không ăn thịt.* – U go’sht yemaydi.

2. “*Không phải*” – Aniq rad etish yoki noto‘g‘rilikni ta’kidlash

• “**Không phải**” (ba’zan “**không phải là**”) “**emas**”, - degan ma’noni anglatadi va ko‘pincha **otlar** yoki **otlashgan so‘zlar** oldidan keladi.

• Misollar:

- *Tôi không phải người Việt.* – Men vyetnamlik emasman.
- *Đây không phải sách của tôi.* – Bu mening kitobim emas.
- *Cô ấy không phải là bác sĩ.* – U shifokor emas.

Farq:

• Agar gapda “**to‘g‘ri emas**”, “**shaxs/narsa emas**” degan nuqtani ta’kidlash kerak bo‘lsa, “**không phải**” ishlatiladi.

• Agar gapda harakat yoki holatning inkori kerak bo‘lsa, “**không**” yetarli.

Qo‘shimcha misol:

- *Tôi không thích cà phê.* – Men kofe yoqtirmayman. (Fe’l inkori)
- *Đây không phải cà phê.* – Bu kofe emas. (Narsaning noto‘g‘riligi)

E'tibor bering: "**phải**" soʻzi oʻzining mustaqil maʼnolari ham bor (masalan, "**toʻgʻri**" yoki "**kerak**"), lekin inkorda "**không phải**" mustaqil soʻz birikmasi hisoblanadi.

3. Umumiy savol - bu butun bir gapga nisbatan berilib, "ha" yoki "yoʻq", - deb javob berish mumkin.

Vyetnam tilida umumiy savollar berish juda oddiy va ular koʻpincha "**Có ... không?**" (Há ... yokmi?) yoki "**Có phải ... không?**" (Há ... emasmi?) shakllarida keladi. Savollarga javoblar odatda "**Có**" (Ha) yoki "**Không**" (Yoʻq) bilan boshlanadi.

3.1. 1. Oddiy umumiy savollarcó không? konstruksiyasi¹:

(1) fe'l kesimli gaplar uchun

Anh có viết từ ngữ không? - Siz lugʻat yozyapsizmi?

JAVOB: **Toʻliq** - Có (vàng), tôi viết từ ngữ - *Ha men lugʻat yozyapman.*

- Không, tôi không viết từ ngữ - *Yoʻq men lugʻat yozmayapman.*

Qisqa - Có (vàng) - *Ha.*

- Không - *Yoq.*

➤ **Bạn có khỏe không?** – Siz yaxshimisiz?

○ **Có, tôi khỏe.** – Ha, men yaxshiman.

○ **Không, tôi mệt.** – Yoʻq, men charchaganman.

➤ *b) "Có phải ... không?" shakli*

Eslatma: Vàng - "ha", - deb javob qaytarish Có - "ha" ga nisbatan koʻproq hurmat munosabatni bildiradi.

¹ **Izoh: Konstruksiya tish.** Grammatik jihatdan oʻzaro bogʻlanib, bir sintaktik birikmani tashkil etadigan ikki va undan ortiq soʻz; umuman, soʻzlar birikmasi. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. <https://izoh.uz/word/konstruksiya>

Fe'lga aniqlik kiritish zarurati yuzaga kelgan holalarda "có" komponenti fe'l kesim oldidan emas, balki aniqllovchi oldida qo'llanilib, so'roq ohangi aniqllovchiga ko'chadi. Masalan:

Sinh viên trả lời có đúng không? - Talaba to'g'ri javob berdimi?

Mavjudlilik ifodalanadigan gaplarda (E (Ega)+ có+ T(To'ldiruvchi)) "có" komponenti so'roq konstruksiyalarida tushirib qoldiriladi: Chị ấy có nón - Unda "non" bor.

Chị ấy có nón không? - Unda "non" bormi?

(2) sifat kesimli qaplar uchun

Bài tập này có khó không? - Bu mashq qiyinmi?

JAVOB: To'liq Vàng, bài tập này có khó - *Ha bu mashq qiyin.*

- Không, bài tập này không khó - *Yo 'q, bu mashq qiyin emas.*

Qisqa - Vàng, khó - *Ha qiyin.*

- Không, (không khó) - *Yoq (qiyin emas).*

3.2. ... có phải không? konstruksiyasining ot kesimli gaplarda ifodalanishi:

Anh có phải là bác sĩ không? - Siz shifokormisiz?

JAVOB: To'liq Vàng, tôi là bác sĩ - *Ha men shifokorman.*

- Không, tôi không phải là bác sĩ (Tôi là nhà báo) - *Yo 'q, men shifokor emasman. (Men journalistman).*

Qisqa - Vàng, - *Ha.*

- Không, (không phải) - *Yoq .*

3.3. Ega-Kesim phải không? konstruksiyasi:

Anh là nhà báo, phải không? - Siz journalistsiz, shunday emasmi?

JAVOB: - Vàng, tôi là nhà báo - *Ha men journalistman.*

- Không, (không phải). Tôi không phải là nhà báo, Tôi là giám đốc -
Yo ‘q, men journalist emasman. Men direktorman.

Savolning bu turi so‘zlovchi tasdiq javob olishiga ishonchi komil bo‘lgan hollarda qo‘llaniladi. ... **có phải không?** konstruksiyasi bilan beriladigan savol turida esa, so‘zlovchida tasdiq javob olishiga ishonchi mavjud bo‘lmaydi.

3.3. à yordamchi yulmasi yordamida savol:

Vyetnam tilida “à” yordamchi yulmasi asosan ogohlantirish, e’tiborni tortish yoki tasdiqlash ma’nolarida ishlatiladi. Bu so‘z gaplarning oxiriga qo‘shilib, nutqda mavhumlik yoki taassurot qoldirish uchun xizmat qiladi.

“À” ning asosiy ishlatilish shakllari:

1. Ogohlantirish / E’tiborni tortish:

- “*Cẩn thận à!*” – “Ehtiyot bo‘l (ogoh bo‘l)!”
- “*Nhanh lên à!*” – «Tezroq qil (diqqat qil)!»

2. Tasdiqlash (ayniqsa savollarga javobda):

- “*Có phải em thích anh không à?*” – “*Ha, em thích anh à!*”
(“Sen meni yoqtirasmi?” – “Ha, men seni yoqtiraman!”)
- “*Hôm nay trời đẹp à!*” – “Bugun havo juda chiroyli (rostdan ham)!”

3. Xayoliy yoki hayajonli ifoda:

- “*Đáng yêu quá à!*” – “Juda shirin (ajoyib) ekan-ku!”.

“*Buồn à!*” – “Ko‘ngling xafa ekan-ku!”

Shuningdek, à yordamchi yuklamasi gap ozirida kelib so‘roqni ifodalaydi, o‘zbek tilidagi “mi?” muqobil bo‘la oladi.

Chị viết à? - Siz yozyapsizmi? (**Yoki:** Yozyapsiz a?) Bu kabi savol turi so‘zlovchi tasdiq javob olishi to‘liq ichongan hollarda beriladi.

GRAMMATIK MAVZUGA DOIR AMALIY MASHQLAR

BÀI TẬP THỰC HÀNH THEO NGŨ PHÁP

1-mashq. Bo'sh joylarni to'ldiring (*Điền vào chỗ trống*):

Dùng những chữ sau đây để điền vào chỗ trống: chiếc, cái, quyển, cuốn, bức người, có, con

1. Bạn Aisha mặc _____ áo đẹp.
2. _____ phải đọc _____ sách.
3. Thoa không thích mang _____ áo màu đỏ.
4. Một năm (yil) _____ mười hai tháng.
5. Mẹ mua _____ áo sơ mi này ở tiệm quần áo.
6. Em thích _____ búp bê nhỏ này.
7. _____ áo dài Việt nam.
8. Em vẽ một _____ tranh đẹp.
9. _____ sách này có nặng không?
10. _____ bác sĩ ấy giỏi lắm.

2-mashq. Bo'sh joylarni to'ldiring (*Bài 2. Điền vào chỗ trống*):

Dùng những chữ sau đây để điền vào chỗ trống: ...có ... không?; có phải là không?;, phải không?; à?

1. Học sinh _____ phải vào lớp đúng giờ _____?
2. Anh _____ uống sữa mỗi ngày _____?
3. Mỗi người nên giúp đỡ những người nghèo, _____?
4. Không nên ăn kẹo trong lớp học _____?
5. Xin thầy em _____ đi vệ sinh được _____ ?
6. Mọi người ngồi _____ im lặng _____?

7. Sinh viên đi vào lớp, _____?
8. Bút chì này là của em _____?
9. Nhà em xa nhà bạn em, _____?
10. Cây bút chì này _____ của anh _____?

3-mashq. O‘qing va diktant yozishni mashq qilish. (Thực hành tập đọc và viết chính tả):

(Dùng giấy nháp viết lại bài tập đọc 3 lần)

Thích Tháng Nào?

(Qaysi oyni eng ko‘p yaxshi ko‘rasiz?)

Cô giáo hỏi cả lớp:

- Trong mười hai tháng, các em thích tháng nào nhất (eng)?

Arina giờ tay và nói:

- Dạ thưa cô, em thích ba tháng mùa hè (yozgi fasl) nhất vì được nghỉ học.

Oshiko giờ tay và nói:

- Dạ thưa cô, em thích tháng mười hai nhất vì có **quà Giáng Sinh**.

Lan giờ tay nói:

- Dạ thưa cô, em thích tháng chín nhất vì là **ngày nhập học** (darsga qaytiladigan kun) và được gặp lại (qayta ko‘rishmoq) các bạn.

Cuối cùng cô giáo kết luận:

- Tháng nào cũng **quan trọng**. Các em phải cố gắng học hành và đừng để **phí** những ngày tháng của mình.

Ngữ vựng (Lug‘at):

nghỉ học	ta‘til	quan trọng	muhim
quà	sovg‘a	cố gắng	harakat qilmoq
Giáng Sinh	Rojdestvo	học hành	astoydil o‘qimoq

cuối cùng axiri; oxir oqibat

đừng ... ma (*inkor*)

kết luận xulosa qilmoq

phí sarflamoq;

để phí isrof qilmoq

4-mashq. Savollarga javob bering. (*Trả lời câu hỏi (trả lời với một câu đầy đủ)*):

1. Một năm có bao nhiêu tháng?

2. Mỗi mùa có mấy tháng?

3. Tháng 12 có lễ lớn tên gì?

4. Em nhập học vào tháng mấy?

5. Mỗi tháng có mấy tuần?

5-mashq. Quyida berilgan gaplarni Vyetnam tiliga tarjima qiling
(*Dịch các câu sau sang Việt Nam*):

1. Bu devor. Bu devor oq rangda. _____

2. Do‘stim qiziqarli kitob sotib oldi. _____

3. Sizda nechta daftar bor? _____

4. Talaba ikkita kitob, uchta daftar va bitta ruchka sotib oldi. _____

5. Men savolni tushunmadim. _____

6. Yettinchi dars unchalik ham qiyin emas. _____

7. Akam talaba emas. Akam shifokor. _____

8. U davlat (*nước*) Vyetnam davlati emas. _____

9. Bu savol emas. _____

10. Sizga bu rasm yoqdimi? _____

6-mashq. “SUHBATNI” o‘zlashtiring!

A: Chào bạn! Bạn thích mùa nào trong năm?

(*Salom do‘stim! Yilning qaysi faslini yoqtirasiz?*)

B: Mình thích nhất là mùa thu. Còn bạn?

(*Men eng ko‘p kuz faslini yoqtiraman. Sizchi?*)

A: Mình lại thích mùa hè vì được đi biển.

(*Men esa yozni yoqtiraman, chunki dengizga borish mumkin.*)

B: Mùa thu ở Việt Nam mát mẻ và có nhiều hoa đẹp.

(*Vyetnamda kuz salqin va chiroyli gullar ko‘p bo‘ladi.*)

A: Đúng vậy! Nhưng mùa hè có nhiều hoạt động vui hơn.

(*To‘g‘ri! Lekin yozda ko‘proq qiziqarli mashg‘ulotlar bo‘ladi.*)

B: Vậy chúng ta có thể cùng đi chơi vào cả hai mùa!

(*Unday bo‘lsa, biz ikkala faslda ham birga sayr qilishimiz mumkin!*)

A: Ý kiến hay đấy! Hẹn gặp bạn nhé!

(*Ajoyib fikr! Kelishdik, ko‘rishguncha!*)

B: Hẹn gặp bạn nhé!

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

(Câu hỏi và bài tập cho nghiên cứu độc lập)

1. Vyetnam tilidagi til o'rta undoshlariga oid mashqlarni mustaqil bajaring.
Til o'rta undoshlariishtirok etgan so'zlardan namunalar o'zlashtiring.
2. O'zbek va Vyetnam tillaridagi umumiy so'roq turlaridagi o'xshash va farqli jihatlarni tushuntiring.
3. ***“Bao Lì Xì Đổ”*** an'anasiga yurtingiz an'analari haqida suhbat tayyorlang.
4. ***“Men yoqtirgan fasl”*** haqida 10 ta gapdan iborat matn tuzing.



MAVZU: “KITOB DO‘KONIDADA” - TẠI HIỆU SÁCH

Darsning maqsadi: talabalarga kitob do‘konlari bilan bog‘liq lug‘at, xarid qilish uchun iboralar va mavzuga doir grammatikani tushintirish; Vyetnamda kitob do‘konlari qanday ishlashi kabi madaniy jihatlar haqida ma’lumot berish; eshitib takrorlash, bayon etish ko‘nikmalarini shakllantirish va amaliy mashqlar orqali mavzuni mustahkamlash. Vyetnam tilida tartib sonlar, noaniq miqdorni ko‘rsatuvchi so‘zlar hamda vaqtning ifodalanishi haqida ma’lumotlar berish, amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish.

Tayanch so‘z va iboralar: Kitob do‘koni, janrlar kabi so‘zlarni, kassir, savdolashish, chegirma: mavsumiy yoki qat’iy narxlar; “so‘m” va “dong” so‘zlar boyicha ‘tezkor viktorina.

FONETIKA (TAKRORLASH) - NGỮ ÂM

1-mashq Tinglang va takrorlang. /d/ va /t/ undoshlarining /i/ unlisi oldidan yumosh talaffuz qilinmayotganiga ahamiyat bering (Nghe và đọc lại theo người nói. Chú ý đến phụ âm /d/ và /t/ không được phát âm nhẹ trước nguyên âm /i/)

đi – ti

đì – tì

đĩ – tĩ

dia – tia

đìa – tìa

đĩa – tia

diên – tiên

điền – tiền

điện – tiện

đính – tính

đĩnh – tỉnh

đình – tình

đích – tích

đình – tình

đĩnh – tỉnh

định – tịnh

địch – tịch

2-mashq. Tinglang va takrorlang. /t/-/c/ tovushlari o‘rtasidagi tafovutga e’tibor bering (*Nghe và đọc lại theo người nói. Chú ý đến sự khác biệt giữa âm /t/ và /c/*)

ti – chi	tin – chin	tính – chính
tí – chí	tín – chín	tĩnh – chĩnh
từ – chì	tìn – chìn	tịnh – chịnh
tỉ – chỉ	tim – chim	tiến – chiến
tĩ – chĩ	tím – chím	tiện – chiện
tị – chị	tìm – chìm	tiếng – chiếng

3-mashq. Tinglang va takrorlang. /γ/ (g), /χ/ (kh) và /h/ (h) / tovushlari o‘rtasidagi tafovutga e’tibor bering (*Nghe và đọc lại theo người nói. Chú ý đến sự khác biệt giữa các phụ âm /γ/, /χ/ và /h/*)

ga – kha – ha	ghê – khê – hê	gu – khu – hu
gá – khá – há	ghé – khé – hỏ	gù – khù – hù
gà – khà – hà	ghề – khề – hề	gụ – khụ – hụ
gả – khả – hả	ghể – khể – hể	gủ – khủ – hủ
gã – khã – hã	ghẽ – khẽ – hẽ	gú – khú – hú
gạ – khạ – hạ	ghệ – khệ – hệ	gũ – khũ – hũ

gang – khang – hang

gương – khương – hương

gàng – khàng – hàng

gường – khường – hường

gạng – khạng – hạng

gượng – khượng – hưởng

4-mashq. Tinglang va takrorlang. Bosh bo‘g‘in va diftonglar talaffuzida lablar ishtiokini farqlang (*Nghe và đọc lại theo người nói. Chú ý đến sự khác biệt giữa âm môi bắt đầu bằng âm tiết và nguyên âm đôi*)

qua – cua	loa – lựa	hoang – hưởng
quá – cửa	loan – luôn	xoàng – xuống
quả – cửa	đóa – đùa	soạn – suốt
toa – tua	đoan – đuồn	toanh – tuồng
toa – tựa	ngoa – nguồn	choai – chuỗi
toạ – tũa	ngoạn – nguôn	quạ – cuội

SUHBAT - HỘI THOẠI: TẠI HIỆU SÁCH

Nhân viên: Chào chị, chị cần tìm sách gì ạ?

Khách hàng: Chào em, Bạn có sách nào mới không? Em có thể giới thiệu cho chị một số sách văn học đương đại không?

Nhân viên: Dạ vâng ạ. Chị thử xem cuốn "Bên không chồng" của nhà văn Dương Hương nhé. Đây là tác phẩm bestseller gần đây ạ.

Khách hàng: Cuốn này giá bao nhiêu vậy em?

Nhân viên: Dạ 120.000 đồng ạ. Hiện đang có giảm giá 10% nên còn 108.000 đồng thôi ạ.

Khách hàng: Cảm ơn em. Chị lấy cuốn này nhé. Tôi thanh toán bằng tiền mặt.

Nhân viên: Vâng ạ. Chị có cần hóa đơn không ạ?

Khách hàng: Có em. Gửi lại hóa đơn cho chị nhé.

Nhân viên: Vâng ạ. Chị thanh toán ở đây ạ. Cảm ơn chị ạ.

LUG‘AT - TÙ NGŨ

topish kerak - cần tìm

mumkin - qila olmoq - có thể

tanishtirmoq - giới thiệu

bir nechta - một số

zamonaviy adabiyot - văn học đương đại

sinab ko‘rmoq - thử xem

“Ersiz iskala” - “Bến không chồng”

yo‘zuvchi - nhà văn

Ism: *Duong Huong* - Dương Hương

asar - tác phẩm

bozori chaqqon - bán chạy nhất / bestseller

shu kunlarda/yaqinda - gần đây

chegirma - giảm giá

to‘lamoq - thanh toán

naqd pul - bằng tiền mặt

hisob/chek - hóa đơn



Belgilangan so‘zlarni ishtirok ettirib gaplar tuzing.

- Kitob do‘koni (**nhà sách**), muallif (**tác giả**), narx (**giá tiền**), kassa (**quầy thu ngân**), chegirma (**giảm giá**);
- Genrelar: **trình thám** (detektiv), **thơ** (she’r), **khoa học viễn tưởng** (fantastika).

GRAMMATIKA - GHI CHÚ NGỮ PHÁP

1. Otga nisbatan aniqlovchining ifodalanishi: Vyetnam tilida otga nisbatan aniqlovchi har doim aniqlanmishdan keyin keladi. U sifat, ot, ko‘rsatish olmoshi yoki boshqalar bilan ifodalanishi mumkin. Masalan:

Chị ấy có cái ô tô đỏ - Uning qizil mashinasi bor.

Tôi là người Uzbekistan - Men O‘zbekistonlikman.


Cô Hương thích áo dài kia - Hương honimga ana u aodai yoqadi.

Agar bir aniqlanmish ot, sifat yoki ko‘rsatish olmoshi bilan ifodalangan aniqlovchiga ega bo‘lsa, u holda aniqlovchi so‘zdan keyin avval (birinchi o‘rinda) ot, ikkinchi o‘rinda sifat va uchinchi o‘rinda esa ko‘rsatish olmoshi kelib, atributiv qatorni yopadi. Masalan:

Tôi thích quyển sách hay kia - Menga ana u qiziqarli kitob yoqadi.

Chị Hoa mua cái áo len đỏ kia - Hoa opa ana u qizil sherst (yunqli) kiyimni sotib oldi.

2. Vyetnam tilida tartib sonlar: Vyetnam tilida tartib sonlar “thứ” - “-chi” yordamchi so‘zi yordamida yasaladi. Shuningdek, birinchi o‘nliklar ichida, ya’ni birdan o‘ngacha bo‘lgan sonlar orasida quyidagicha fonetik o‘zgarishlar sodir bo‘ladi.



một (1) - thứ nhất (birinchi)

ba (3) - thứ ba

hai (2) - thứ hai (ikkinchi)

bốn (5) - thứ tư

Ikkinchi o‘nlik va undan yuqori sonlarda fonetik o‘zgarishlar xuddi miqdor sonlaridagi kabi saqlab qoladi. Masalan:

thứ hai mươi một	-	yigirma birinchi
thứ hai mươi tư	-	yigirma to‘rtinchi
thứ bốn mươi năm	-	qirq beshinchi

Tartib sonlari ham otga nisbatan aniqlovchi vazifasida kelib, gapda otdan keyingi o‘rinni egallaydi.

Ot + thứ + son

Misol:

Đây là bài đọc thứ sáu - bu oltinchi matn.

3. Noaniq miqdorni ifodalovchi so‘zlarning qo‘llanilishi: Vyetnam tilida noaniq miqdorni ifodalashda *mấy* - “bir nechta”, *nhiều* - “ko‘p” *ít* - “kam”.

3.1. *Mấy* - “bir nechta”, *nhiều* - “ko‘p” *ít* - “kam” so‘zlari va boshqa shu kabi (noaniq miqdorni ifodalovchi) so‘zlar noaniq miqdor ifodalanayotgan holatlarda miqdor sonlari o‘rnini egallashi mumkin. Bunday o‘rinlarda miqdor sonlari kabi otdan avvalgi o‘rinda qo‘llaniladi. Biroq, *nhiều* - “ko‘p” *ít* - “kam” so‘zlari miqdor sonlardan farqli o‘laroq nafaqat sanaladigan, balki sanalmaydigan otlar bilan ham birikishi mumkin. *ít sữa* - “kam sut”, *nhiều cơm* - “kop guruch”.

Nhiều - “ko‘p” *ít* - “kam” so‘zlari hisob so‘zlar bilan birikishi mumkin bo‘lgan otlar bilan brikkanda ot so‘zlarining hisob so‘zlari tushirib qoldiriladi.

